MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI

"YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!"

VATANPARVAR

"Mustaqil O'zbekiston — g'ururim, iftixorim!"



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
24-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN

WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 28-AVGUST
№35 (3201)

TA’LIM VA TARAQQIYOT: INSON KAPITALIGA QARATILGAN ISLOHOTLAR

Bu yil mamlakatimiz mustaqil bo‘lganiga 35 yil to‘ldi. Albatta, ushbu yo‘lni bosib o‘tish oson bo‘lmadi. Mamlakatimiz bu yo‘lda qanchadan qancha qiyinchiliklarni, iqtisodiy o‘sish va taqchilliklarni, turli siyosiy keskinliklarni boshdan kechirdi. Biroq har qanday sinov va murakkab davrlarga qaramay, xalqimiz o‘zining azm-u shijoati, mehnati va ertangi kunga bo‘lgan ishonchi bilan taraqqiyot sari dadil odimladi.

Bugun ortga nazar tashlasak, mustaqillik yillarida mamlakatimiz hayotining deyarli barcha jabhalarida ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilganiga guvoh bo‘lamiz. Yangi ishlab chiqarish korxonalari, zamonaviy infratuzilma, shahar va qishloqlardagi bunyodkorlik ishlari, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan islohotlar ana shu mashaqqatli va sharafli yo‘lning samarasidir.

So‘nggi yillarda Prezidentimiz rahbarligida mamlakatimizda boshlangan tub burilishlar va islohotlar jarayonida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishi etib belgilandi. Mamlakatimiz rahbari ilgari surgan Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasi markazida ham aynan ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, o‘qitish sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish va mehnat bozori uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadi turibdi.

Mustaqillikning dastlabki chorak asrida O‘zbekistondagi ta’lim jarayoni murakkab, ko‘p hollarda konservativ va mehnat bozori talablaridan uzilib qolgan tizimga aylanib qolgan edi. Maktablarda eskicha tizim ustuvor bo‘lib, u o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy yondashish ko‘nikmalarini rivojlantirmasdi. Oliy ta’limga qamrov darajasi esa atigi 9-10 foiz atrofida bo‘lib, bu yoshlarning salohiyatini yuzaga chiqarishga to‘sqinlik qilardi.

2017-yildan boshlangan yangi islohotlar to‘lqini ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inini – maktabgacha ta’limdan tortib, oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi bosqichgacha bo‘lgan uzviy silsilani qamrab oldi. Bu keng ko‘lamli o‘zgarishlar zamirida nafaqat bugungi ta’lim sifatini oshirish, balki mamlakatning ertangi taraqqiyotini ta’minlaydigan, bilimli va yuksak salohiyatli avlodni tarbiyalashdek ezgu maqsad mujassam.

Ana shu ezgu maqsad yo‘lida keyingi yillarda ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar uchun munosib ta’lim sharoitlarini yaratishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, so‘nggi to‘qqiz yilda yurtimizda ta’lim va ilm-fan uchun xarajatlar 6 karra oshirilib, 378 trillion so‘mni tashkil etdi, yuzlab yangi bog‘chalar, maktab, texnikum va oliygohlar qurildi.

Bu haqda gapirganda, mamlakatimizda qisqa muddatda bog‘chalar soni 5 200 tadan 38 mingtaga, qamrov darajasi 27 foizdan 78 foizga oshdi. 500 ga yaqin yangi maktab barpo etilib, mavjudlari kengaytirilgani hisobidan 1 million o‘quvchi o‘rni yaratildi. Xususiy maktablarga yo‘l ochilishi tufayli, ota-onalar va o‘quvchilar uchun tanlash imkoniyati paydo bo‘ldi. Bugungi kunda 200 mingdan ziyod o‘g‘il-qizimiz ana shunday maktablarda o‘qimoqda.

12 yillik maktab ta’limi hamda 9- va 11-sinf o‘quvchilari uchun yagona davlat imtihonlari joriy qilinib, ularning natijalari bo‘yicha bitiruvchilar bevosita texnikum va oliygohlarga kira oladigan tartib yo‘lga qo‘yildi.

Ta’lim islohotlarining yana bir muhim yo‘nalishi iqtidorli va iste’dodli yoshlarni aniqlash, ularning qobiliyatini erta namoyon etish va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga qaratilgan yangi tizimning shakllantirilganidir. Shu maqsadda 2019-yilda “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilinib, hududlarda zamonaviy ta’lim dasturlari asosida faoliyat yurituvchi Prezident maktablari tashkil etildi. Ularda o‘quvchilarni aniq fanlar, xorijiy tillar, axborot texnologiyalari va boshqa zamonaviy yo‘nalishlar bo‘yicha chuqur o‘qitish, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Eng muhimi, mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni seleksiya asosida tanlab olish, ularni maqsadli tayyorlash va xalqaro maydonda munosib ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha ilgari mavjud bo‘lmagan yangi tizim yo‘lga qo‘yildi. Buning amaliy samarasi sifatida esa xalqaro fan olimpiadalarida qo‘lga kiritilayotgan natijalarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.



Xususan, **yillar davomida yaratilgan imkoniyatlar natijasida, yoshlarimiz jahon fan olimpiadalarida 66 ta oltin, 147 ta kumush, 221 ta bronza medalni qo‘lga kiritdi. Bu ko‘rsatkich yosh avlodning intellektual salohiyati, ularni tayyorlash tizimi va ta’lim sifatidagi ijobiy o‘zgarishlarning natijasidir.**

Ta’lim tizimidagi islohotlarning yana bir muhim jihati boshqaruv va o‘qitish jarayonini to‘liq raqamlashtirishdir. Shu maqsadda qog‘ozbozlik va o‘qituvchilarning asosiy vaqtini oladigan hisobotlarni kamaytirish uchun butun mamlakat bo‘ylab “E-maktab” tizimi joriy etildi. Bu tizim o‘qituvchini soatlab jurnal to‘ldirish mashaqqatidan qutqardi. Ota-onalarga o‘z farzandining baholari, davomati va uyga vazifalarini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini berdi.

Ta’limdagi islohotlar qamrovi faqat maktab ta’limi bilan cheklanib qolmayotgani oliy ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarda ham ko‘zga tashlanmoqda. Xususan, so‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimini rivojlantirish, yoshlarning sifatli ta’lim olishi uchun imkoniyatlarni kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.

Jumladan, oliy ta’lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 44 foizga, talabalar soni esa 270 ming nafardan 1,7 million nafarga yetdi. Joriy yilning o‘zida 643 ta texnikumning 100 tasida Germaniya, Buyuk Britaniya, Shvetsariya, Xitoy va Janubiy Koreya kabi davlatlarning ilg‘or kasbiy ta’lim dasturlari joriy etildi.

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti hamda O‘zbekiston Milliy universiteti nufuzli xalqaro reytinglarda dunyoning eng yaxshi mingta oliy ta’lim muassasasi qatoridan o‘rin oldi. Oliygohlardagi 157 ta ta’lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazildi.

Ta’lim tizimining eng og‘riqli nuqtalaridan biri – ilgari bitiruvchilarning qo‘lida diplomi bo‘la turib, ish tajribasi va amaliy ko‘nikmalari yo‘qligi tufayli ishga joylasha olmasligi edi. Ish beruvchilar esa doimiy ravishda kadrlar taqchilligidan shikoyat qilardi. Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bu ulkan jarlikni bartaraf etish uchun Germaniya, Avstriya va Shvetsariyada o‘zini to‘liq oqlagan dual ta’lim tizimi O‘zbekistonda joriy etila boshlandi.

Ushbu ta’limda o‘quvchi haftaning 2 kuni auditoriyada nazariyani o‘rgansa, qolgan 4 kunini biron tashkilot yoki korxonada mutaxassisligi bo‘yicha tajribali xodimlar bilan o‘tkazadi. Dual ta’limdagi o‘quvchi korxonada ishlagan soatlari uchun rasmiy ish haqi oladi. Bu unga talabalik davridanoq o‘z mehnati bilan oilasiga yordamlashish, mustaqil daromad topish imkonini beradi va o‘qishga qiziqishini keskin oshiradi.

Dual ta’lim modeli davlat, ish beruvchi *(tadbirkor)* va yoshlar uchun birdek foydali strategiya. Korxona tayyor kadrni

ishga qabul qilishdan avval uni o‘z uskunalari va korporativ madaniyatiga moslashtirib oladi. Yoshlar o‘rtasida ishsizlik darajasi qisqaradi. Norasmiy mehnat bozoridan qonuniy, soliq to‘lovchi malakali ishchi kuchi shakllanadi. “Oliy ma’lumotli ishsiz” degan maqomdan qutulib, birinchi kursdan kafolatlangan ish joyi va daromadga ega bo‘ladi.

Bu kabi zamonaviy yondashuvlar ta’lim tizimining boshqa yo‘nalishlarida, **jumladan harbiy ta’lim sohasida ham izchil joriy etilmoqda. E’tiborlisi, o‘tgan yili davlatimiz rahbari tashabbusi bilan harbiy ta’lim tizimi tubdan yangilandi va bu yo‘nalishda keng ko‘lamli, strategik ahamiyatga ega islohotlar amalga oshirildi**.

Xususan, zamonaviy talablar asosida malakali professor-o‘qituvchi, tajribali, yuqori salohiyatli harbiy mutaxassislardan iborat Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etildi. Ushbu ta’lim dargohida o‘quv jarayoni ilg‘or xalqaro tajribalarga tayangan holda qayta shakllantirilib, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellektga asoslangan ta’lim platformalari, virtual trenajyorlar hamda zamonaviy baholash va monitoring tizimlari bosqichma-bosqich joriy etildi.



Mazkur yangiliklar harbiy kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga ko‘taribgina qolmay, yoshlarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularda zamonaviy fikrlash, tahlil qilish va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Amaliy mashg‘ulotlar va nazariyaning uyg‘unligi asosida tayyorlanayotgan harbiy mutaxassislar bugungi kun tahdidlarini teran anglaydigan, zamonaviy jang sharoitida ishonch bilan harakat qila oladigan kadrlar sifatida voyaga yetmoqda.

Bu boradagi islohotlarning mantiqiy davomi sifatida bugun muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlarni kasbga o‘rgatish va sifatli ta’lim olishlari uchun sharoit yaratilmoqda.

Joriy o‘quv yilidan boshlab muddatli harbiy xizmatchilar uchun harbiy xizmat davrida oliygohlarga o‘qishga kirib, masofaviy ta’lim olish imkoniyati yaratildi. Bu jarayonda askarlar uchun ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikda harbiy qismlarda abituriyentlarni tayyorlash kurslari tashkil etilib, oliygohlarning kirish imtihonlariga tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Shartnoma asosida o‘qishga qabul qilingan askarlarga esa foizsiz imtiyozli kreditlar ajratiladi. Eng muhimi, oliy ta’lim muassasalariga qabul qilingan askarlar harbiy fakultetlar talabalariga tenglashtirilib, o‘qishni tamomlagandan so‘ng ularga zaxiradagi leytenant harbiy unvoni beriladi.

Shu bilan birga, namunali xizmat o‘tagan, respublika va xalqaro sport musobaqalari hamda fan olimpiadalarida 1-o‘rinni egallagan askarlar test sinovlarisiz o‘qishga qabul qilinadi.

Umuman olganda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar yagona maqsad – bilimli, kasbli, mustaqil fikrlaydigan va zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan avlodni tarbiyalashga qaratilgan yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ta’limga kiritilgan har qanday mablag‘ning natijasi darhol ko‘zga tashlanmasligi mumkin. Ammo uning samarasi yillar o‘tib, bilimli mutaxassis, malakali shifokor, fidoyi o‘qituvchi, zamonaviy muhandis, mohir texnolog, yetuk olim va vatanparvar fuqaro timsolida namoyon bo‘ladi.



Shu nuqtayi nazardan, ta’lim sohasidagi islohotlarni faqatgina bir sohadagi o‘zgarish sifatida baholab bo‘lmaydi. Chunki ta’limdagi har bir yangilanish iqtisodiyot, fan, madaniyat, sog‘liqni saqlash, ishlab chiqarish va umuman jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi arafasida ortga nazar tashlar ekanmiz, ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ko‘lami va mazmuni mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichini yaqqol namoyon etayotganini ko‘ramiz.

“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan ezgu g‘oya ham aynan shu jarayon bilan uyg‘un. Chunki yagona maqsad atrofida birlashgan xalqning eng katta boyligi uning bilimli va ma’rifatli avlodidir.

Mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni yanada mustahkamlash, Yangi O‘zbekistonni taraqqiy etgan davlatlar qatoriga olib chiqish uchun bugungi yoshlarning bilim va salohiyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois ta’limga berilayotgan e’tibor aslida mamlakatning ertangi kuniga berilayotgan e’tibordir.





Zero Vatan ravnaqi bilimli avloddan, xalq farovonligi malakali kadrlardan, yangi kelajak esa bugungi ta’limdan boshlanadi. Mustaqillikning 35 yilligi esa ana shu ulug‘ maqsadlar yo‘lida bosib o‘tilgan yo‘lni sarhisob qilish, erishilgan natijalarni yangi marralar sari yo‘naltirish uchun muhim tarixiy palladir.

Leytenant Mansurbek JABBOROV, “Vatanparvar”



Rag‘bat va e’tirof

MARDLAR QO‘RIQLAYOTGAN MUQADDAS NE’MAT

Mustaqillik – bu shunchaki oddiy so‘z yoki shunchaki aytiladigan gap emas. U xalqning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi, ertangi kuniga ishonch va milliy taraqqiyot yo‘lini mustaqil tanlash imkoniyatini bergan tarixiy ne’mat. Bu yil mustaqil bo‘lganimizga 35 yil to‘ldi. Ushbu davrda mamlakatimiz siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida ulkan o‘zgarishlarni amalga oshirib, milliy davlatchilik va zamonaviy taraqqiyotning o‘ziga xos modelini shakllantirib kelmoqda.



Bugun Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida tinchlik va barqarorlikni asrash, davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini ta’minlash eng muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mamlakatning barqaror taraqqiyoti, iqtisodiy salohiyati va xalq farovonligi, avvalo osoyishta va ishonchli xavfsizlik muhitiga bog‘liq. Shu ma’noda, milliy armiyaning jangovar shayligi, harbiy xizmatchilarning kasbiy mahorati va Vatanga sadoqati davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir.





Ana shu yuksak maqsad va ezgu g‘oyalar uyg‘unligida Mudofaa vazirligi markaziy apparatida Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida bayram tadbiri o‘tkazildi. Unda mudofaa vaziri general-leytenant Shuxrat Xalmuxamedov, vazir o‘rinbosarlari, Qurolli Kuchlar faxriylari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda so‘zga chiqqan mudofaa vaziri eng ulug‘ va eng aziz ne’mat – mustaqillikning mamlakatimiz hayotida tutgan o‘rni xususida so‘zlar ekan, o‘tgan davr mobaynida Qurolli Kuchlarimizda amalga oshirilgan izchil islohotlar, milliy armiyamizning salohiyatini yuksaltirish borasida erishilgan natijalarga alohida e’tibor qaratdi. Shuningdek, harbiy xizmatchilarimizning turli xalqaro musobaqalarda munosib ishtirok etib, yuksak natijalarni qo‘lga kiritayotgani, bu esa milliy armiyamiz salohiyati va harbiy kadrlarimizning kasbiy mahorati tobora yuksalib borayotganining yorqin ifodasi ekanini ta’kidladi.

Bayram munosabati bilan ishtirokchilarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondonining bir guruh harbiy xizmatchilarni davlat mukofotlari bilan taqdirlash to‘g‘risidagi farmoni o‘qib eshittirildi.

Unga ko‘ra, mamlakatimiz Qurolli Kuchlarining jangovar tayyorgarligini oshirishdagi alohida xizmatlari, milliy manfaatlarimizni himoya qilish, tinchligimizni ta’minlashdagi sharafli burchini bajarish chog‘ida mardlik, jasorat va fidoyilik ko‘rsatgan harbiy xizmatchilarga hamda Qurolli Kuchlar xizmatchilariga davlat mukofotlari tantanali ravishda topshirildi. Shuningdek, tadbirda mudofaa vazirining buyrug‘iga binoan, yana bir guruh harbiy xizmatchilar “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi” esdalik nishoni va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Tadbir yakunida Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli hamda el suygan taniqli san’atkorlar ijrosidagi kuy-qo‘shiqlar kechaga o‘zgacha fayz bag‘ishladi.

Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”









Kichik serjant Ixtiyorjon MAMAJONOV

Islohotlar amalda

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi arafasida Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti poliklinikasi zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlanib, tantanali ravishda foydalanishga topshirildi.

BAYRAMONA TUHFA

Albatta, bu O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar hamda harbiy, tibbiy va ta’lim sohalaridagi o‘zaro manfaatli hamkorlikning amaliy ifodasi bo‘ldi. Marosimda Hindiston Respublikasining O‘zbekistondagi Favqulodda va Muxtor Elchisi Smita Pant, ofitserlar, Qurolli Kuchlar faxriylari, harbiy xizmatchilar ishtirok etdi.

Ochilish marosimida Hindiston Respublikasi hukumati tomonidan mazkur poliklinikaga zamonaviy tibbiy-diagnostika va davolash uskunalari, maxsus reanimobil hamda Mudofaa vazirligi harbiy gospitallari uchun to‘rt to‘plam travmatologik uskunalar foydalanishga topshirildi. Poliklinikaga jami 49 turdagi 70 dan ortiq zamonaviy tibbiy jihoz va apparat, jumladan raqamli rentgenografiya, holter apparati, veloergometr, UZI, stomatologik uskunalar, fizioterapiya apparatlari hamda boshqa tibbiy vositalar yetkazib berildi.

So‘z olganlar O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi tarixiy do‘stlik, o‘zaro hurmat va manfaatli hamkorlik munosabatlari bugungi kunda yangi mazmun bilan boyib borayotganini alohida e’tirof etdi.

Endilikda mazkur tibbiy uskunalar universitetda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar, kursantlar va ularning oila a’zolariga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat sifatini yanada oshirish, zamonaviy diagnostika imkoniyatlarini kengaytirish, kasalliklarni erta aniqlash va samarali davolashga qo‘l keladi. Shuningdek, maxsus reanimobilning foydalanishga topshirilishi shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish imkoniyatlarini yanada yaxshilaydi.

Ochilish marosimidan so‘ng mehmonlar yangidan ta’mirlangan, zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlangan poliklinikada yaratilgan shart-sharoitlar va yangi tibbiy imkoniyatlar bilan yaqindan tanishdi.

Tadbir so‘ngida ikki davlat o‘rtasidagi harbiy hamkorlikni rivojlantirishga munosib hissa qo‘shgan hindistonlik mutaxassislar va hamkorlar Mudofaa vazirligining “Jangovar hamdo‘stlikni mustahkamlashdagi xizmatlari uchun” ko‘krak nishoni hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
“Vatanparvar”











Kichik serjant Ixtiyorjon MAMAJONOV

Kiberxavfsizlik

SUN'IY INTELLEKT

Bugun sun’iy intellekt haqida eshitmagan odam deyarli qolmadi. Kimdir undan matn yozishda, kimdir tarjima qilishda, yana kimdir rasm yaratish, ma’lumot izlash yoki ish jarayonini avtomatlashtirishda foydalanmoqda. Bir necha yil oldin fantastik filmlarda ko‘rgan texnologiyalarimiz bugun telefonimiz va kompyuterimizda oddiy dasturga aylanib ulgurdi.

Ammo har qanday kuchli texnologiyaning ikkinchi tomoni ham bor.

Pichoq oshxonada kerakli asbob, lekin noto‘g‘ri qo‘lda xavfli qurolga aylanadi. Zamonaviy AI texnologiyalari bilan ham xuddi shunday: u kiberxavfsizlik mutaxassisi qo‘lida himoya vositasi bo‘lsa, kiberjinoyatchi qo‘lida hujumni tezlashtiruvchi kuchga aylanishi mumkin.

Shuning uchun bugungi savol, **sun’iy intellekt foydalimi yoki zararli?**

Asosiy savol boshqacha:

U kimning qo‘lida va qanday maqsadda ishlatilmoqda?

ENDI XAKER HAM YOLG‘IZ ISHLAMAYDI

Odatda xaker deganda ko‘z oldimizga qorong‘i xonada bir nechta monitor qarshisida o‘tirib, klaviaturada tez-tez nimadir yozayotgan inson keladi. Zamonaviy kiberhujumlarda esa bu tasavvur asta-sekin eskirmoqda.

Endi hujumchiga ayrim vazifalarni aqlli tizimlar bajarib berishi mumkin. Ular katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qiladi, ehtimoliy zaifliklarni saralaydi, dastur kodini o‘rganishga yordam beradi, soxta elektron xatlar tayyorlaydi va bir vaqtning o‘zida ko‘plab vazifalarni bajaradi.

So‘nggi davrda kuzatilgan ayrim kiberoperatsiyalar bu xavf qanchalik jiddiylashayotganini ko‘rsatdi. Ochiq manbalardagi ma’lumotlarga ko‘ra, ayrim hujumlarda avtonom AI-agentlardan foydalanilib, ular tarmoqni o‘rganish, zaif nuqtalarni aniqlash hamda keyingi harakatlarni mavjud vaziyatga moslashtirish vazifalarini bajargan.

Bu yerda e’tibor qaratish kerak bo‘lgan eng muhim jihat tezlik va avtomatlashtirish. Inson bir vaqtning o‘zida cheklangan miqdordagi ma’lumotni tahlil qiladi. U charchaydi, diqqati susayadi, dam olishi kerak. Avtomatlashtirilgan tizim esa minglab ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida ko‘rib chiqishi va bir nechta vazifani parallel ravishda bajarishi mumkin.

Demak, kiberhujumlar olamida yangi davr boshlanmoqda: insonga qarshi faqat inson emas, balki inson boshqarayotgan “raqamli yordamchilar”ham harakat qilmoqda.

Sizning eng katta zaifligingiz kompyuter bo‘lmasligi mumkin. Qizig‘i shundaki, AI yordamida amalga oshiriladigan hujumlarning hammasi ham murakkab texnik usullardan boshlanmaydi. Ba’zan hujumchi uchun eng oson yo‘l insonning o‘zi. Tasavvur qiling, elektron pochtangizga rahbaringiz nomidan xat keldi:

Hujjatni zudlik bilan ko‘rib chiqing. Yig‘ilishga 10 daqiqa qoldi. Xatda rahbaringizning ismi to‘g‘ri. Lavozimi to‘g‘ri. Imzo uslubi ham odatdagidek. Matnda imlo xatosi yo‘q. Hatto murojaat uslubi ham sizga tanish. **Siz havolani bosasiz**.

Aslida esa xatni rahbaringiz emas, AI vositalari yordamida tayyorlangan fishing tizimi yozgan bo‘lishi mumkin. Ilgari fishing xatlarini ba’zan g‘alati jumlalar yoki imlo xatolari orqali bilib olish mumkin edi. Generativ texnologiyalar esa bu kamchiliklarni sezilarli darajada kamaytirdi. U turli tillarda tabiiy matn yozishi, rasmiy uslubni taqlid qilishi va muayyan vaziyatga mos ishonchli xabar tayyorlashi mumkin.

Bugun bu xavf elektron xat bilan ham cheklanmaydi. Ovozni sun’iy ravishda o‘xshatish, soxta surat va videolar yaratish imkoniyatlari ham rivojlanmoqda. Natijada ertaga sizga **rahbaringiz** qo‘ng‘iroq qilib, tezda biror ma’lumotni yuborishni so‘rasa, faqat ovozni eshitib ishonish ham yetarli bo‘lmasligi mumkin.

Shu sababli zamonaviy kiberxavfsizlikda juda muhim bir qoida paydo bo‘lmoqda: **Ko‘rgan narsangiz ham, eshitgan narsangiz ham har doim haqiqat bo‘lavermaydi**.

SUN’IY INTELLEKT FAQAT TAHDID EMAS

Shu yergacha o‘qib, unda bu texnologiyadan umuman foydalanmaslik kerak ekan, degan fikr paydo bo‘lishi mumkin. Yo‘q. Bu ham to‘g‘ri yechim emas. Chunki hujumchilar undan foydalanayotgan bir paytda himoyachilar ham undan foydalanmoqda.

Zamonaviy kiberxavfsizlik tizimlari tarmoqdagi millionlab hodisalar orasidan shubhali harakatlarni ajratish, foydalanuvchining odatiy faoliyatidan chetga chiqishlarni aniqlash, zararli dasturlarni tahlil



DO‘STMI YO DUSHMAN?



qilish va hodisalarga tezkor javob qaytarish uchun mashinali o‘qitish hamda aqlli tahlil vositalaridan foydalanmoqda.

Oddiy misol: tashkilotda ming nafar xodim bo‘lsa, ularning kompyuterlari, serverlari, elektron pochtalari va axborot tizimlari bir kunda juda katta hajmdagi log yozuvlarini hosil qiladi.

Inson ularning barchasini qo‘lda tekshira olmaydi.

Aqlli tahlil tizimi esa ular orasidan “nega bu foydalanuvchi odatdagidan farqli vaqtda tizimga kirdi?”, “nega bu qurilma qisqa vaqt ichida o‘nlab serverlarga murojaat qilmoqda?”yoki “nega bu akkauntdan noodatiy hajmda ma’lumot olinmoqda?”kabi holatlarni tezda aniqlashi mumkin.

Demak, ushbu texnologiya kiberjinoyatchining qo‘lida hujumni tezlashtirsa, kiberxavfsizlik mutaxassisi qo‘lida erta ogohlantirish tizimiga aylanadi.

Menda yashiradigan narsa yo‘q degan fikr eng katta xato. Kiberxavfsizlik haqida gap ketganda ba’zan: “Men oddiy odamman, mening ma’lumotim kimga kerak”, degan fikrlarni eshitamiz.

Aslida kiberjinoyatchi uchun sizning mashhur yoki boy bo‘lishingiz shart emas. Elektron pochtangiz, ijtimoiy tarmoq akkauntingiz, telefon raqamingiz, ish joyingiz haqidagi ma’lumotlar yoki bir nechta shaxsiy ma’lumotning o‘zi keyingi hujum uchun yetarli bo‘lishi mumkin.

Ayniqsa, bir xil paroldan bir nechta xizmatda foydalanish juda xavfli. Bir tizimdan sizib chiqqan parol boshqa akkauntlarni ham tekshirish uchun ishlatilishi mumkin.

Shuning uchun menga hech kim hujum qilmaydi degan fikr o‘rniga agar hujum qilishsa, men tayyormanmi degan savolni berish to‘g‘riroq bo‘ladi.

NIMA QILISHIMIZ MUMKIN

Kiberxavfsizlik faqat IT mutaxassislarining vazifasi emas. Eng zamonaviy himoya tizimi ham foydalanuvchi o‘z ixtiyori bilan maxfiy ma’lumotlarini taqdim etsa, samarasiz bo‘lib qoladi.

Shu sababli quyidagi odatlarni kundalik hayotimizning bir qismiga aylantirish zarur:


- *dastur va qurilmalarni o‘z vaqtida yangilab boring;*
- *ikki yoki ko‘p bosqichli himoyani yoqing;*
- *shoshilinch talablarni tekshirmasdan bajarishga shoshilmang;*
- *shubhali so‘rovlarni boshqa aloqa kanali orqali tasdiqlang;*
- *parol va tasdiqlash kodlarini hech kimga bermang;*
- *muhim ma’lumotlarning zaxira nusxalarini saqlang.*

Sun’iy intellektni faqat do‘st yoki faqat dushman deb atash to‘g‘ri emas. U vosita. U shifokorga tashxis qo‘yishda, muhandisga murakkab masalani hal etishda, o‘qituvchiga ta’lim berishda va kiberxavfsizlik mutaxassisiga tahdidlarni aniqlashda yordam berishi mumkin.

Xuddi shu texnologiyadan kimdir fishing, aldov va noqonuniy faoliyatni avtomatlashtirish uchun ham foydalanishi mumkin. **Shuning uchun raqamli dunyodagi eng muhim himoya vositasi kompyuter emas, insonning o‘zi hisoblanadi**. Har bir havolani bosishdan oldin o‘ylash, har qanday shoshilinch talabni tekshirish va raqamli savodxonlikni oshirib borish bugungi kunda katta ahamiyat kasb etadi.

Texnologiyalar rivojlanadi, tahdidlar ham murakkablashadi. Ammo bir haqiqat o‘zgarmaydi: **Kiberxavfsizlik texnologiyadan boshlanishi mumkin, ammo u har doim insonning hushyorligi bilan mustahkamlanadi**.

Katta serjant
Bahodir DADABOYEV,
Mudofaa vazirligi Kiberxavfsizlik departamenti telekommunikatsiya tarmoqlari kiberxavfsizligi boshqarmasi katta texnigi *(dasturchi)*



Meros

Mustaqillik – MA’RIFAT VA MA’NAVIY UYG‘ONISH DAVRI

Mustaqillik haqida gap ketganda, ko‘pincha ko‘z oldimizga avvalo, 1991-yilning 31-avgusti, yurtimizning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega bo‘lgani, davlat ramzlarimiz, milliy valyutamiz, o‘z Konstitutsiyamiz kabi tarixiy voqealar keladi. Bu tabiiy. Chunki mustaqillik, eng avvalo xalqning o‘z kelajagini o‘zi belgilash huquqidir.

Ammo mustaqillikning qiymati faqat davlatning siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lgani bilan o‘lchanmaydi. Uning yana bir, balki undan ham chuqurroq ma’nosi bor: insonning o‘z tarixiga, o‘zligiga, tiliga, diniga, ma’naviy ildizlariga yangicha nigoh bilan qarash imkoniyati.

Zero o‘zligini anglamagan jamiyatning mustaqilligi ham to‘la ma’noda qaror topishi qiyin. Inson o‘zining kimligini, qanday tarixning vorisi ekanini, ajdodlari nimalar yaratganini bilmasa, ertangi kunga qanday ishonch bilan qadam qo‘yadi?

Shu ma’noda, mustaqillik yillarini faqat iqtisodiy, siyosiy yoki ijtimoiy o‘zgarishlar bilan emas, milliy xotira va ma’naviy tafakkurning qayta uyg‘onish jarayoni bilan ham baholash lozim. Bugun ortga nazar tashlasak, bu borada bosib o‘tilgan yo‘l qanchalik katta ekanini anglaymiz.

Mustaqillikning dastlabki yillarida xalqimiz o‘zining ko‘p asrlik tarixiga, buyuk ajdodlariga, milliy va diniy qadriyatlariga qaytadan murojaat qila boshladi. Ilgarilari nomi yoki merosi yetarlicha o‘rganilmagan, asarlari keng ommaga yetib bormagan allomalarimiz haqida yangi tadqiqotlar olib borildi. Ularning ilmiy merosi qayta nashr etildi, asarlari o‘rganildi, hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy anjumanlar tashkil etildi.

Bu bilan oddiy tarixiy xotira tiklanibgina qolmay, millat o‘z ma’naviy ildizlarini qayta kashf eta boshladi. Chunki Movarounnahrni ko‘pincha qadimiy shaharlar, tarixiy obidalar yoki sayyohlik maskanlari deb bilardik, endi esa bu zamin asrlar davomida ilm-fan, tafakkur, ma’rifat va ma’naviyat markazlaridan biri bo‘lib kelganini anglab yetdik. Samarqand, Buxoro, Termiz, Xiva, Shosh, Farg‘ona kabi hududlardan yetishib chiqqan allomalar nomlari birgina xalqimiz emas, butun musulmon olami ilmiy xotirasida alohida o‘rin tutishiga bugun isbot talab etilmaydi.

Imom Buxoriyning hadis ilmidagi mavqeyi, Imom Moturidiyning aqida va aql-tafakkur uyg‘unligiga asoslangan ta’limoti, Imom Termiziyning hadisshunoslik rivojiga qo‘shgan hissasi – bularning barchasi bizga yurtning eng katta boyligi uning ilmiy va ma’naviy xotirasida mujassam ekanini kundek ravshan qilib qo‘ydi.

Shuning uchun mustaqillikdan keyin bu merosga munosabatning o‘zgarishi juda muhim ahamiyat kasb etdi. Eng muhimi, bu jarayon faqat o‘tmishni eslash bilan cheklanib qolmayapti. Allomalar qoldirgan merosning bugungi kun uchun ahamiyati, undagi ilmiy tafakkur, ma’naviy qarashlar va inson kamolotiga oid g‘oyalar yangi nuqtayi nazardan tahlil etilmoqda. Shu tariqa tarixiy meros muzey yoki kitob sahifasida qolib ketmay, zamonaviy ilmiy izlanishlar va ma’rifiy hayotning faol qismiga aylanmoqda.

Bu jarayonning yana bir muhim jihati bor. Merosni o‘rganish – faqat o‘tmishni bilish uchun emas. Ajdodlarimizning ilmga munosabati, bilimni qadrlashi, turli fikrlarga munosabat madaniyati, inson kamolotiga qarashlari bugungi jamiyat uchun ham muhim saboq bo‘la oladi.

Masalan, Imom Buxoriy merosi haqida gapirganda, ko‘pincha uning hadis ilmidagi buyuk xizmati tilga olinadi. Bu, albatta, to‘g‘ri. Lekin bu ulkan meros ortida yana bir muhim fazilat – ilmga nisbatan beqiyos mas’uliyat borligini ham unutmaslik kerak.

Ilmni tekshirish, manbani saralash, haqiqat bilan gumonni ajratish, eshitgan har bir gapni haqiqat deb qabul qilmaslik – bugungi axborot zamonida ham nihoyatda zarur fazilatlar emasmi?

Bugun ijtimoiy tarmoqlarda har kuni minglab xabarlar tarqaladi. Kimdir biror ma’lumotni tekshirmasdan ishonadi, yana kimdir uni boshqalarga tarqatadi. Natijada haqiqat bilan yolg‘on, dalil bilan taxmin bir-biriga aralashib ketadi.

Shunday bir paytda asrlar oldin manbalarga nihoyatda sinchkovlik bilan yondashgan buyuk muhaddisning ilmiy merosi biz uchun faqat tarix emas, axborot madaniyati uchun ham muhim saboqdir.



Surat sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi

Mustaqillik bizga ana shu merosga yangi ko‘z bilan qarash imkonini berdi. Biroq bu jarayon faqat kitob va ilmiy maqolalar bilan cheklanib qolmadi. Bugun allomalarimiz merosini keng jamoatchilikka yetkazish, yosh avlodga tushunarli tilda taqdim etish, uni zamonaviy ta’lim va texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirishga ham katta e’tibor berilmoqda. Bu juda muhim. Chunki tarixni faqat muzeyda saqlab qo‘yish bilan uni tirik merosga aylantirib bo‘lmaydi.

Meros yashashi uchun u avloddan avlodga o‘tishi kerak. Buning uchun esa yosh inson Imom Buxoriyning kim bo‘lganini bilishi bilan birga, nima uchun u bugun ham butun dunyoda hurmat qilinishini anglashi kerak. Imom Moturidiyning nomi darslikda uchrashi bilan ish bitmaydi. Uning aql, ilm va e’tiqod o‘rtasidagi uyg‘unlik haqidagi qarashlari bugungi yoshlar uchun qanday ahamiyatga ega ekani ham tushuntirilishi lozim. Aynan shu nuqtada mustaqillik yillaridagi ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning mazmuni yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Gap faqat o‘tmishni eslashda emas. Gap o‘tmishdagi buyuklikdan bugungi kun uchun kuch olishda. Chunki har qanday millatning kelajagi uning tarixini qanchalik chiroyli gapirib berishida emas, balki o‘sha tarixdan qanday xulosa chiqara olishida ko‘rinadi.

Bizning ajdodlarimiz ilmni hurmat qilgan. Kitobni qadrlagan. Ustozga ehtirom ko‘rsatgan. Turli ilm sohalarini bir-biridan ajratmagan. Shuning uchun ham bir zamonlar Movarounnahr ilm-fan taraqqiyotining yirik markazlaridan biriga aylangan. Bugun biz uchun eng muhim vazifa ana shu muhitni zamonaviy sharoitda qayta shakllantirishdir.

Mustaqillik yillarida diniy-ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan ishlarga ham shu nuqtayi nazardan qarash kerak. Diniy bilimni ilmiy asosda o‘rganish, buyuk allomalar merosini tadqiq etish, qo‘lyozma manbalarni asrab-avaylash, ularni keng jamoatchilikka yetkazish, yoshlarning ma’naviy savodxonligini oshirish bularning barchasi bir-biri bilan uzviy bog‘liq jarayonlardir.

Ayniqsa, bugungi murakkab axborot muhitida ma’rifatning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki bilimsizlik faqat kitob o‘qimaslik emas. Ba’zan bilimsizlik – ko‘r-ko‘rona ishonish. Manbasini tekshirmaslik. Har bir balandparvoz gapni haqiqat deb qabul qilish. Tarixni bir tomonlama talqin qilish. Dinni ham, milliy qadriyatni ham yuzaki tushunish. Shuning uchun bugun ma’rifat deganda faqat ta’limni emas, to‘g‘ri fikrlash madaniyatini ham tushunish lozim.

Mustaqillikning 35 yili bizni ana shu masalada ham ishonchimizni komil qildi: davlat qurish uchun faqat mustahkam qonunlar yoki zamonaviy binolarning o‘zi kifoya emas. Jamiyatda ilmga hurmat, tarixga to‘g‘ri munosabat, ma’naviy immunitet va ertangi kun uchun mas’uliyat ham bo‘lishi kerak.

Shu bois bugun ajdodlar merosiga bo‘lgan qiziqishni faqat tarixchilar yoki dinshunoslarning ishi deb qarash to‘g‘ri emas. Bu – butun jamiyatning ishi. Chunki tarixini bilgan inson o‘zligini yaxshiroq anglaydi. O‘zligini anglagan inson esa o‘z qadrini biladi. O‘z qadrini bilgan odam o‘z Vatani va uning kelajagiga befarq bo‘lmaydi. Mustaqillik yillarida ma’naviy sohadagi o‘zgarishlarning eng katta ahamiyati ham shunda.

Biz o‘tmishga qaytish uchun emas, o‘tmishdan kuch olib, kelajak sari shaxdam odimlash uchun tariximizni o‘rganyapmiz. Bugun O‘zbekistonda allomalarimiz merosini tadqiq etish, ular asarlarini nashr qilish, xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish, yosh tadqiqotchilarni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy-ma’rifiy markazlar faoliyatini rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar ham ana shu katta maqsadga xizmat qilyapti.

Bu jarayonning mohiyatini bir og‘iz so‘z bilan ifodalash mumkin: milliy xotiradan milliy tafakkur sari. **Zero mustaqillik bizga nafaqat o‘z bayrog‘imiz ostida yashash, balki o‘z tariximizga o‘z ko‘zimiz bilan qarash huquqini ham berdi**.

Endi navbat – ana shu imkoniyatdan oqilona foydalanishda. Zero ajdodlarimiz bizga tayyor kelajak qoldirmagan. Ular bizga ilmga intilish, haqiqatni izlash, ma’rifatni qadrlash va inson kamolotiga ishonish kabi buyuk merosni qoldirgan. Bu merosni asrash esa faqat o‘tmishga ehtirom emas. Bu kelajak oldidagi mas’uliyatdir.

Jonibek JUMAYEV,
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi katta ilmiy xodimi, PhD

Islohotlar bilan hamqadam

SHIMOLI-G‘ARBIY HARBIY OKRUGDAN XABARLAR

SINOVDAN O‘TAYOTGAN MARDLIK



Shimoli-g‘arbiy harbiy okrugda Mudofaa vazirligi miqyosida an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan sport ishlari ko‘rigining navbatdagi bosqichi bo‘lib o‘tdi.

Mazkur sport tadbiri harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligi va jangovar shayligini yanada mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish, shuningdek harbiy jamoalarda sog‘lom raqobat muhitini qaror toptirish maqsadida tashkil etildi.

Musobaqalarda harbiy okrug tarkibidagi harbiy qism va muassasalardagi jamoalar ishtirok etib, belgilangan 7 ta sport turi bo‘yicha o‘zaro bahs olib bordi. Sinovlar jarayonida harbiy xizmatchilar o‘zlarining jismoniy tayyorgarligi, kuch-g‘ayrati, chaqqonligi, chidamliligi hamda kasbiy mahoratini namoyon etdi.

Sport ishlari ko‘rigining uchinchi bosqich yakunlariga ko‘ra, eng yuqori natijalarni qayd etgan jamoalar hamda harbiy xizmatchilar Mudofaa vazirligi tomonidan “Harbiy sportchi” ko‘krak nishoni va “Harbiy sportchi” unvoni bilan taqdirlanadi.

Festival



VATAN TUYG‘USI CHEGARA BILMAYDI

Mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Shumanay tumanining olis hududlarida ham vatanparvarlik festivali ko‘tarinki ruhda o‘tkazildi.

Unda Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug qo‘mondonligi, kuch tuzilmalari vakillari, harbiy xizmatchilar hamda tuman hokimligi, yoshlar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda so‘z olganlar Vatan tuyg‘usi chegara bilmasligi, yoshlar qalbida istiqlolga muhabbat, harbiy xizmatga qiziqish va sharafli burchga daxldorlik hissini kuchaytirish eng muhim masalalardan ekani alohida ta’kidlandi.

Shu kuni zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnika ko‘rgazmasi ham tashkil etildi. Bu, yoshlarda katta taassurot qoldirdi. Qo‘ljangi ustalarining mahorat namoyishi tadbirga o‘zgacha shukuh bag‘ishladi. Vatan himoyachilarining chaqqonligi, jasorati, jismoniy tayyorgarligi va mukammal harakatlari barchada sharafli kasbga muhabbatni yanada kuchaytirdi.

Tadbirning badiiy qismida tuman va harbiy orkestr jamoalarining Vatan, istiqlol va ona yurtni madh etuvchi kuy-qo‘shiqlari aholi va yoshlar qalbiga o‘zgacha surur olib kirdi. Jarangdor kuylar ostida yangragan Vatan madhiyalari el-yurtimizning tinch va farovon hayotiga bo‘lgan shukronalik tuyg‘ularini yanada jo‘sh urdirdi.

Harbiy sport musobaqasi

HARBIY-VATANPARVARLIK SPARTAKIADASI



Qoraqalpog‘iston Respublikasida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kengashi hamda Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug hamkorligida “O‘zbekiston – yagona Vatan, unga xizmat qilish muqaddas burch!” shiori ostida “Harbiy-vatanparvarlik spartakiadasi” harbiy sport musobaqasi o‘tkazildi.

Aytish kerakki, mazkur musobaqa nafaqat sport bellashuvi, balki yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, milliy g‘urur va yuksak mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirishga ham xizmat qildi. Musobaqaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi bosqichida tuman va shahar bahslarida umumta’lim maktablarining 9-11-sinf o‘quvchilaridan iborat jamoalar g‘oliblik uchun kurash olib bordi. Unda eng sara jamoalar o‘zaro kuch sinashib, bilim, mahorat va jismoniy tayyorgarlik borasidagi salohiyatlarini namoyon etdi.

Jami 5 mingga yaqin yoshni qamrab olgan ushbu musobaqa yoshlarning jismoniy chiniqishi, harbiy-amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, yetakchilik fazilatlarini shakllantirish va jamoaviy hamkorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Musobaqa yakuniga ko‘ra, 1-o‘rinni Kegeyli tumanidagi 41-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi jamoasi, 2-o‘rinni Amudaryo tumanidagi 40-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi jamoasi, 3-o‘rinni Taxiatosh tumanidagi 22-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi jamoasi qo‘lga kiritdi.

Shukronalik



QALBLAR SHUKUHI

Shimoli-g‘arbiy harbiy okrugning Ma’naviyat va ma’rifat markazida hamkor tashkilotlar bilan “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz” degan ezgu g‘oya asosida “Mustaqillik to‘yi” festivali tashkil etildi.

Tadbirda harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolari, yoshlar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Festival davomida yangragan kuy-qo‘shiqlar, jaranglagan she’rlar va ijro etilgan musiqiy asarlar oddiy san’at namunalari emas, balki qalblardan otilib chiqqan Vatan madhiyasi yanglig‘ ko‘ngillarni shod etdi.

Bayram dasturining eng ta’sirchan lahzalaridan biri harbiy orkestr jamoasining chiqishlari bo‘ldi. Jarangdor kuylar va harbiy marshlar festivalga o‘zgacha shukuh bag‘ishlab, ishtirokchilar qalbida faxr va iftixor tuyg‘ularini yanada jo‘sh urdirdi. Harbiy orkestr sadolari ostida, go‘yo butun bir xalqning qat’iyati, jasorati va Vatan himoyasiga tayyorligi mujassam bo‘lgandek taassurot uyg‘ondi.

Yoshlar tadbir davomida nafaqat bayram shukuhidan bahramand bo‘ldi, balki Vatan, istiqlol va milliy qadriyatlar haqidagi ijodiy chiqishlar orqali muhim hayotiy saboqlar oldi. Shunday qilib, “Mustaqillik to‘yi” festivali yuksak tuyg‘ularni bir maydonda mujassam etdi. U qatnashchilar qalbida unutilmas onlarni ulashib, istiqlol ne’matlariga shukronalik, ona Vatanga sadoqat va kelajakka ishonch tuyg‘ularini yanada kuchaytirdi.

Katta leytenant Ahadjon JABBOROV, Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug matbuot xizmati boshlig‘i

31-avgust – Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni

Uning ko‘zlariga sira qaray olmayman. Ko‘zlariga ko‘zim tushsa, yuragim uvishib ketadi – qandaydir bir og‘riq yurib ketadi tomirimda. Negaki, uning boqishlarida so‘ngsiz mung ko‘raman. Nazarimda u, ko‘zlarini ko‘zimga tikkancha: “Qay gunohim uchun meni bu azoblarga soldilar?” – deya so‘roqqa tutayotgandek ko‘rinadi. Har gal suratiga ko‘zim tushganda yuragim bir orziqib ketadigan bu ayol Sobira Xoldorova – mening hamkasbim, men xizmat qilgan “Saodat” jurnalining sobiq muharrirlaridan biri *(“Saodat” jurnali 1925-yilda “Yangi yo‘l” nomida haftalik gazeta tarzida chop etilgan)*. Sobira Xoldorova 1928–1930-yillarda ana shu “Yangi yo‘l” jurnalida muharrirlik qilgan.

SOBIRA XOLDOROVANING FOJIALI TAQDIRI



Sobira Xoldorova haqida men ilk bor 1975-yilda “Saodat” jurnalining 50 yillik yubileyiga hozirlik ko‘rayotgan chog‘imizda, tariximizga doir materiallarni o‘rganish jarayonida eshitganman. Ayni o‘sha chog‘lar, men bu ayolning boshiga tushgan savdolardan xabar topdim.

Hali o‘zim hech qachon ko‘rmagan va tanimagan bu ayol qismati yuragimni o‘rtadi, qalbimni sirqiratdi. Jurnalimiz tarixiga doir tayyorlayotgan risolamiz uchun barcha sobiq muharrirlarimiz suratini qator terib qo‘ygan chog‘imizda Sobira Xoldorovaning suratdan turib, mungli boqishi meni hayratga soldi. Nazdimda bu mung abadul-abad cho‘kkan edi, uning ko‘zlariga... Ko‘zlarigagina emas, uning qalbi tubiga ham cho‘kkan edi, bu mung... Avval qalbiga cho‘kkan-u so‘ng ko‘zlarida namoyon bo‘lgan...

Qo‘limda Sobira Xoldorovani O‘zbekiston SSR Jinoyat Majmuasining 63- va 67-moddalari bilan ayblash bo‘yicha to‘plangan hujjatlar. Bu ish 1937-yilning 22-sentabridan boshlanib, 1939-yilning 29-martida tugatilgan. “Bir yarim yil tergov beripti-ya”, – degan nido yangraydi, dilimda. Yuqorida aytganlarimni hujjatlar tiliga ko‘chiradigan bo‘lsak, “Jinoyatnoma”ning 41-sahifasidagi ayblov xulosasida quyidagilarni o‘qish mumkin:

“1907-yilda Chust rayonining Chust qishlog‘ida tug‘ilgan, SSSR grajdani, partiyasiz, 1927-yildan 1937-yilgacha VKP(b) a’zosi bo‘lgan va sinfiy hushyorligini yo‘qotgani hamda aksilinqilobiy unsur bilan aloqa bog‘lagani uchun (bu yerda gap uning eri Mo‘min Usmonov haqida ketyapti), partiyadan o‘chirilgan, qamalgunga qadar Toshkent shahar, Kirov rayon partiya qo‘mitasi kotibi bo‘lgan Sobira Xoldorova O‘zbekiston SSR Jinoyat majmuasining 63- va 67-moddalari bo‘yicha aybdor sanaladi.

Ushbu ish ko‘rish uchun SSSR IIXK huzuridagi Alohida Majlisga yo‘llansin”.

Mazkur hujjatga shu sohaning kazo-kazolari imzo chekkan. Sahifaning so‘ngida yana shunday yozuv bor:

MA’LUMOTNOMA

Ayblanuvchi Xoldorova (1937-yilning 22-sentabridan boshlab qamoqda. Ichki ishlar xalq komissarligining O‘ZSAZ LAGi SIZOsida saqlanmoqda. Ish bo‘yicha ashyoviy dalillar yo‘q.

IIXK DHB operativ vakili.

Jumhuriyatimizning, nainki jumhuriyatimiz, balki sobiq SSSR xalqining yoshi-yu qarisi uchun birday dahshatli 1937-yil! Necha-necha ziyolilarimiz, madaniyat arboblarimizning yostig‘ini quritgan bu yillarda. Ularning ko‘plari Chita, Omsk, Solovki, Qozon, Tuman, Krasnoyarsk va Yoqutiston turmalari, lagerlarida azob chekkan.

Aziz o‘quvchi, siz hozir ayblov xulosasi bilan tanishdingiz. Endi sizga “Jinoyatnoma”ning birinchi sahifasini ochaman. Unda 1937-yilning 20-sentabr kuni sho‘rolarga qarshi tashkilot a’zosi bo‘lgan Sobira Xoldorovaning eri Mo‘min Usmonov bilan birga aksil sho‘roviy ish olib borgani uchun hibsga olish va Toshkent turmasiga qamash haqida qaror bor.

Jumhuriyatimizda xotin-qizlar matbuotining vujudga kelishida o‘z hissasini qo‘shgan birinchi jurnalist ayol Sobira Xoldorova bosib o‘tgan hayot yo‘li, uning achchiq qismati har sahifani varaqlaganim sayin, butun chalkashliklari bilan ko‘z o‘ngimdan bir-bir o‘ta boshlaydi...

Mana uning tergov anketasi. Men undan Sobira Xoldorovaning 1907-yilda Chustda kambag‘al dehqon oilasida dunyoga kelganini, 1921-yilgacha, ya’ni 14 yoshga to‘lguncha internatda tarbiyalangani, o‘qigani, o‘rta ma’lumot olgani, kommunistik partiya safiga kirganini bilaman. Oilasida 12 yoshli o‘g‘li Po‘lat va besh yashar qizi Manzura, qari onasi Komila bor. Eri Mo‘min Usmonov aksil inqilobchi sanalib, undan xiyol oldinroq qamoqqa olingan...

1937-yil shunday dahshatli yil ediki, yetim qolayotgan bolalar taqdiri nima bo‘lishi hech kimni qiziqtirmasdi – yetim uchun yetimxona bor, deb qaralgan u paytlarda: ikki bolani yetimxonaga jo‘natdilar. Er-xotinga tegishli mulk, har biriniki alohida-alohida xatga olinib, onasi bilan bolalarining kiyim-boshi, ko‘rpa-yostig‘i-yu, go‘sht qiymalagichdan tortib, qoshiqqacha musodara qilindi va IIX Komissarligining tegishli omborxonalariga tashib ketildi... Bo‘layotgan bu qonunsizliklarning bari nainki jumhuriyat, balki Sovet ittifoqi nomidan, go‘yo xalq saodatini ko‘zlab qilingan...

Aziz o‘quvchi, bu yozayotganlarim balki, sizga ikir-chikir bo‘lib ko‘rinar, lekin buni atay ta’kidlab o‘tmoqchiman, zero uyda keksa ona, norasida ikki go‘dak qolyapti-yu, lekin IIX komissarligining “Hushyor” xodimlari bolalar do‘ppisidan tortib, velosipedgacha, samovardan tortib, chit ko‘ylakkacha xatlagandi. Sobira Xoldorovaning xatlangan ro‘zg‘or buyumlari ro‘yxatiga qaraganimda, o‘sha chog‘larda Jumhuriyatimiz ziyolilarining o‘rta holgina yashaganlariga amin bo‘ldim, hech qaysi birining mol-mulkka hirs qo‘yganini sezmadim. Ularning deyarli hammalari mamlakatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar xalqqa farovonlik olib kelishiga katta ishonch bilan yashar, yaxshi kunlarga tezroq yetish uchun bor kuchini sarf qilib, kechani kecha, kunduzni kunduz demay ishlardi.

Ammo davr taqozosiga ko‘ra hibsga olingan Sobira Xoldorovani sovetlarga qarshi tashkilotga a’zolikda, g‘oyaviy frontda zararkunandalik qilishda aybladi.

Uning aybi nimadan iborat edi?!

O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Xoldorovaga e’lon qilgan 1939-yilning 26-martidagi qarorida shunday deyilgandi:

“Tergov Sobira Xoldorovaning O‘zbekistonda barbod etilgan aksil sho‘roviy o‘ng troskistlik tashkilot a’zosi bo‘lganini aniqladi. U O‘zbekiston KP(b) Markaziy Qo‘mitasining sobiq sarkotibi, hozirga kelib otib yuborilgan xalq dushmani Akmal Ikromov rahbarligidagi aksil sho‘roviy millatchi, o‘ng troskist tashkilotga a’zo bo‘lgan. Shu uyushma topshirig‘iga ko‘ra g‘oyaviy frontda zararkunandalik qilgan.

Marksizm-leninizm klassiklari asarlarini o‘zbek tiliga nashr etish ishiga zarar yetkazish niyatida Xoldorova 1932–1934-yillarda eri Usmonov bilan birgalikda o‘rtoq Stalinning “Leninizm masalalari” asarini buzib tarjima qilgan va 30 000 nusxada chop etgan. Oxir-oqibatda siyosiy xatolari tufayli bu kitob savdo tashkilotlaridan yig‘ishtirib olingan va natijada davlatga 144,782 so‘m 82 tiyin ziyon yetkazgan”...

Xuddi shu kuni, ya’ni 1939-yilning 16-martida Sobirani tergovga chaqiradi.

Tergovchi savol beradi:

– Sizga O‘zSSR Jinoyat Majmuasining 63- va 67-moddalariga ko‘ra, aksil sho‘roviy millatchilik tashkiloti a’zosi sifatida, shu tashkilot topshirig‘i bilan g‘oyaviy frontda zararkunandalik ishi olib borishda ayblanasiz. O‘zingizni aybdor hisoblaysizmi?

Javob:

– Aksil sho‘roviy millatchilik tashkilotiga aloqadorlikda o‘zimni aybdor hisoblamayman. Aksil sho‘roviy milliy tashkilotga aloqam yo‘q...

Xoldorovaga doir “Jinoyatnoma”ni o‘rganganimda qonunlarimizning shafqatsizligi larzaga soldi, meni. Gap shundaki, tergov davomida ruhiy dardga chalingan Sobirovani shifoxonaga yo‘llaydi. Lekin negadir uning onasi bilan uchrashuvga ijozat so‘rab bergan arizasi qondirilmaydi.

Jumhuriyat ruhiy shifoxonasi direktori Matyuxinning 1939-yilning 4-iyun kuni 38 raqami bilan O‘zSSR IIXKga yo‘llagan xatida, shifoxonaga tekshirish uchun yo‘llangan mahkuma S. Xoldorova onasi va bolalari bilan



uchrashish istagini bildirib, buni sizga yetkazishni talab qilyapti. U 12-iyundan boshlab, uchrashuvga ijozat berilganga qadar ochlik e’lon qildi, deb yozadi.

Boyaqish ayol! Farzandlari taqdiri, keksa onasi taqdiri bu dardman ayolni qanchalar tashvishlantirgan... Axiyri, o‘n yettinchi iyunga kelib, Xoldorovaga oilasi bilan uchrashuvga ijozat beradi.

Yana bir “Ish” bor.

“Xoldorovaning mulkiga doir” deb yuritiladi. Shu “Ish”ning 22-23-sahifasida, *(1939-yil iyulida bo‘lsa kerak)* Sobira Xoldorovaning o‘g‘li Po‘lat Usmonovning Stalinga yozilgan maktubi tirkalgan. Xalqlar otasiga umid va ishonch bilan yozilgan bu arizani biror kimsa rahmi kelib, aytib turib yozdirgan bo‘lsa kerak, u olti yoshli singlisi bilan “O‘rtoq” fabrikasida 120 so‘m maosh olib ishlaydigan buvisi qaramog‘ida qolganini, mol-mulklari musodara qilinib, qiynalib qolganlarini aytib, onasining qismatini yengillashtirishni so‘raydi. Bechora bola xalqlar otasining shafqat qilishiga ishongan bo‘lsa kerak. Ammo uning xati onasining “Jinoyatnomasi”ga tirkab qo‘yilishini, u qayoqdan bilsin.

1938-yilning 26-dekabrida mahkumning onasi Komila Qo‘ziboyeva Ichki ishlar xalq komissarligiga ariza yo‘llab, moddiy ahvoli og‘irligini, 115 so‘m oylik bilan ikki norasidani boqish mushkulligini, qizi tarafidan sodir qilingan gunohga bolalarning aloqasi yo‘qligini aytib, o‘ziga va bolalarga tegishli buyumlarni qaytarib berishni so‘raydi.

Uning arizasi oqibatsiz qoldirilmadi.

1939-yilning 13-yanvar kuni IIX komissarligi qaror chiqaradi. Bu qarorga ko‘ra:

1) Komila Qo‘ziboyeva so‘ragan buyumlar qaytarib berilishi ko‘rsatiladi.

2) Sobira Xoldorova va eri Mo‘min Usmonovga tegishli buyumlar *(ikkinchi ro‘yxat bilan)* davlat fondiga topshirilishi ta’kidlangan.

3) Sobira Xoldorovaning shaxsiy buyumlari IIXK AXOsining maxsus omborida vaqtincha saqlashga topshirilsin, deyiladi.

Mahkumaning onasiga qaytarib beriladigan buyumlar ro‘yxatini o‘qib yuragim uyushib ketdi. Axir ota-ona hibsga olingan bo‘lsa, norasida farzandlari va keksa onada nima gunoh? Onalari qamalgach, bolalarining hayoti tugashi kerakmi? Tirik jonning yashashi uchun kundalik hayotda zarur bo‘lgan oddiy buyumlarni ham tortib olish kerakmidi? **Quyida e’tiboringizga Xoldorovaning onasiga qaytarilgan buyumlar ro‘yxatini keltiraman, o‘zingiz xulosaga kelaqoling.**

1. Kulrang chit – 10 m. 2. Ko‘k satin – 7 m. 3. O‘zbekcha chit ko‘ylak – 2 dona. 4. Kamzul – 1 dona. 5. Jigar rang palto – 1 dona. 6. Ko‘rpa – 4 dona. 7. So‘tilgan ko‘rpa – 1 dona. 8. Kalish – 1 dona. 9. Velosiped – 1 dona. 10. Bolalar karavoti – 2 dona. 11. Bolalar ko‘rpasi – 2 dona. 12. Odeyal – 1 dona. 13. Bolalar ich kiyimi. 14. Do‘ppi – 1 dona. 15. Qizil baxmal – 2,5 m. 16. Samovar – 1 dona. 17. Sandiq – 1 dona. 18. Fotoapparat – 2 dona. 19. Shtativ – 1 dona. 20. Billiard – 1 dona.

Kundalik hayotda har bir tirik jon uchun zarur bo‘lgan shu buyumlarni, avvalo o‘ylamay-netmay qanday qilib xatladi ekan! Qaytarib berish uchun esa qancha as’asa-yu vasvasa kerak... “Astag‘firullo!” deb yoqa ushlaysan kishi. Bu satrlarni o‘qib, muallif namuncha ikir-chikirga o‘ralashib qolmasa deguvchilar ham bo‘lishi mumkin. Bugun bizga ikir-chikir bo‘lib ko‘ringan narsalar o‘sha uzoq



1937-yillarda tiriklikning mazmuni edi. 1933-yillardagi butun mamlakatda necha million aholini qirg‘inbarot qilib olib ketgan qahatchilik va ocharchilik yillaridan so‘ng xalq endigina qaddini tiklab kelayotgan chog‘lar. U qahatchilik va ocharchiliklarni biz ko‘rganmiz, boshqa hech kimga ravo ko‘rmaymiz. Ana shunday og‘ir paytlarda, “farzandlar otalar uchun javob bermaydi” deb turilsa-da, keksa ayol va ikki norasidaning boshiga kiyishga do‘ppisini, ustiga yopishga ko‘rpasini qoldirmay, shipshiydam qilib chiqib ketsa... Shunday qilishlariga sira aqlim bovar qilmaydi-yu, lekin Ichki ishlar xalq komissarligi ma’muriy xo‘jalik bo‘limi katta inspektori imzo chekkan ro‘yxat qo‘limda turibdi.

Qizi bilan kuyovi sovetlarga qarshi harakatlarda ayblanib, qamalgan Komila opaning ikki yetimni yedirib-ichirib, tarbiyalashdan tashqari ham tashvishlari ko‘p. Bu yugur-yugurlar orasida tintuv paytida olib ketilgan 1560 so‘m pul va besh ming so‘mlik davlat zayomini qaytarib olish yo‘lidagi sa’y-harakatlari ham tinka-madorini quritadi. Bu orada 1939-yilning 9-oktabrida Po‘lat Ichki ishlar xalq komissari Sadjayga ariza yozib, o‘sha xatlangan pul va zayomni qaytarishlarini so‘raydi. Ariza necha qo‘llardan o‘tadi, uning orqasiga kimdir qora qalam bilan *(kv. 574, 1937-yilning 10-oktabri 5 205 so‘m, “Mozer” seriyasidagi qo‘lsoat N 702470),* deb yozib qo‘yibdi.

Bu arizaga javoban 1939-yilning noyabrida tayyorlangan xulosada:

“Sobira Xoldorovaning ishonch xatiga binoan uning onasi Qo‘ziboyevaga bolalari ta’minoti uchun bir ming yuz so‘m pul berilsin” deb “marhamat” qilinadi-da, “5000 so‘mlik obligatsiyalar va 702470 raqamli kumush “Mozer” soat ish ko‘rilish mobaynida saqlash uchun O‘zSSR IIXK moliya bo‘limi kassasida saqlanishga qo‘yiladi.

Ha, hammasi risoladagiday – ro‘yxatsiz igna ham egasiga qaytarilmaydi.

Bu orada Sobira Xoldorovaga aloqador “jinoiy ish” ko‘rilmay, u turmada azob chekib yotadi. Komila opaning Ichki ishlar xalq komissari Sadjayga 1939-yilning 15-dekabrida yo‘llagan arizasida, qizi Toshkent turmasida yotganini, 2 yildan ortiq tergov ketayotgani – qachon tugashi noaniqligini, qizi aybdor bo‘lsa, tergovni tezlatib, sud qilishlarini so‘raydi va ariza so‘ngida tergov qizining begunohligini aniqlashiga ishonch bildiradi.

Bechora mahkumaning zimmasiga qo‘yilgan gunoh nimadan iborat edi? Hujjatlarga murojaat etamiz.

1937-yilning 20-sentabr kuni Sobira Xoldorova hibsga olinishidan ikki kun burun, Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi qarorida shunday deyiladi:

“Men, O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi boshqarmasi 1907-yilda tug‘ilgan, partiyasiz – yot unsur bilan aloqasi uchun partiya safidan chiqarilgan, Frunze ko‘chasidagi 35-uyda istiqomat qilgan Sobira Xoldorova haqidagi materialni o‘rganib chiqdim.

Aksil inqilobiy millatchilik tashkiloti a’zosi Mo‘min Usmonovning rafiqasi bo‘lmish Sobira Xoldorova u bilan birga aksil inqilobiy harakat olib borgan. Shunga ko‘ra qaror qilamiz: Sobira Xoldorova hibsga olinib, Toshkent turmasiga qamalsin”.

Qamash uchun chiqarilgan qarorda Sobira Xoldorovaning aksil inqilobiy harakatlari nimalarda ko‘rilgani haqida esa lom-mim deyilmaydi.

Shu bilan bir insonning hayotiga chiziq tortildi. Sobira Xoldorova 1940-yilda SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi alohida majlisi qarori bilan 5 yil muddatga Yoqutistonga badarg‘a qilinadi. Bizda shunday bo‘lgan: bir odamning nomi yomonga chiqdimi – tamom, surobi to‘g‘ri bo‘lguncha ketiga tushiladi. Sobirani 1942-yilda qaytib kelganidan keyin ham tinch qo‘ymagan. 1949-yilning mayida uni yana Toshkentdan badarg‘a qildi. Bu orada u yana ruhiy shifoxonaga tushib qoldi va uch oy davolandi. Lekin hali shifo topib ulgurmasidan, Toshkentdan 50 kilometr nariga jo‘natildi. Shu ketganicha amnistiyadan keyingina qaytib keldi. Sobira Xoldorova o‘zining nohaq mahkum etilganini, oqlashlarini so‘rab 1943-yildan to 1949-yilgacha SSR Oliy Soveti va SSSR Ichki ishlar vazirligiga bir necha bor ariza yozdi. Lekin arizalari oqibatsiz qolib ketaverdi...

Oradan yana yetti-sakkiz yil o‘tib ketdi. Axiyri, haqiqat qaror topdi, 1956-yilning 22-iyunida Turkiston Harbiy okrugining harbiy tribunali Sobira Xoldorovaning ishini qayta ko‘rib chiqdi. Podpolkovnik Guskov raisligida, Adliya podpolkovnigi Sherbakov, adliya polkovnigi Ivanov a’zoligida ajrim chiqardi. **Ajrimda shunday ko‘rsatiladi:**

“...Xoldorova ishi bo‘yicha tergov xolis olib borilmagan, qonunga xilof ravishda ayblashga urinilgan. Xoldorova hibsga olingandan keyin oradan o‘n yetti oy o‘tgachgina unga aybnoma e’lon qilingan”.

Bu gal tergayotganlar avvalgi tergovchilar va sud hay’ati ko‘zini ko‘r, qulog‘ini kar qilib, e’tibor qilmagan ko‘rsatmalarni inobatga oladi. “Bo‘lar ekan-ku!” – deb yuborasan beixtiyor.

Yana ajrimga murojaat etaman:

“Dastlabki tergovda Xoldorova o‘zining sovetlarga qarshi milliy tashkilotga a’zoligini qat’iyan inkor etib, o‘zini faqat Stalinning “Leninizm masalalari” kitobini o‘zbek tilida xatolar bilan chop etishda aybdorligini tan oladi. KPSS Markaziy Qo‘mitasi kotibiga yozgan shikoyatida ham, 1956-yilning martidagi tergovda ham Xoldorova aksilinqilobiy faoliyatidagi aybini qat’iyan inkor etgan...”

Yana: ekspertizaning xulosasiga qaraganda Xoldorova tarjima qilgan kitobda, darhaqiqat ko‘pgina terminlar noto‘g‘ri tarjima qilingan, bir qator xatolarga yo‘l qo‘yilgan. Bu hol tarjimonlarning rus va o‘zbek tilini yaxshi bilmaganlari, yetarli nazariy tayyorgarliklari bo‘lmagani, shuningdek ish olib borgan sohalarini yaxshi bilmaganlaridan kelib chiqqan, deya ko‘rsatiladi. Mana bu gal haqiqatni gapirdi. Darhaqiqat, kitob tarjimasidagi xatolar ataylab qilingan zararkunandalik bo‘lmay, yuqorida sanab o‘tilgan sabablar oqibati edi.

Ana shu yuqorida sanab o‘tilgan va yana boshqa qator holatlardan kelib chiqib, SSSR IIX komissarligi huzuridagi alohida majlisning 1940-yil 5-dekabridagi Sobira Xoldorovaga doir qarori bekor qilinadi. Bu ajrimga ish bo‘yicha rais adliya podpolkovnigi Guskov imzo chekadi.

Haqiqatning qaror topishi o‘n to‘qqiz yilga kechikkan edi. Sobiraning o‘n to‘qqiz yillik hayoti hasrat-nadomatda azob-uqubatda o‘tib ketdi. Bu kunlarni boshqalarga ko‘rsatmasin, boshiga tushganlarga esa to‘zim bersin xudoyim.

Bu azob-uqubatlar o‘z asoratini qoldirdi, albatta, 1940-yil 5-dekabridagi qaror bekor qilingani haqidagi ma’lumotnomani Sobiraga yo‘llaganlarida u betob edi. 1956-yilning 30-iyun kuni bu hujjatni uning o‘g‘li Po‘lat imzo chekib, bir nusxasini olib qoladi, ikkinchi nusxasi orqasiga katta leytenant: “Xoldorovaning o‘g‘lining aytishiga ko‘ra S. Xoldorova 1956-yilning 20-mayidan shu kunga qadar Toshkentdagi ruhiy shifoxonada davolanyapti”, deb yozib qo‘yadi. Ma’lumotnomaning yon tomonida boshqa yozuv: Xoldorovaga uning ishi to‘xtatilganini xabar qilishga ijozat bo‘ladimi, deb so‘rash lozim. 1956-yil 5-dekabr, Sobira Xoldorovaning o‘g‘liga ma’lumotnomani topshirgandan beri ham to‘rt oy o‘tibdi-ya! Shum xabarni yetkazishlari oson ekan-ku, xushxabarni yetkazishni bunchalar orqaga surmasalar...

Boshga tushganni ko‘z ko‘rar ekan. Boshiga ne-ne ko‘rgiliklar tushsa ham Sobira hayotda umid bilan yashadi. Uning hayotning ayovsiz bo‘ronlaridan ham ko‘ksini g‘oz tutib yurishining siri bor edi. U bugun orzu-umidlarini farzandlari Po‘lat va Manzura bilan bog‘lagan edi.

Yaratganga shukur, farzandlari insofli, tavfiqli, ilmli va mehribon chiqdi. O‘g‘li Po‘lat ko‘ngilli bo‘lib frontga ketdi, jang qildi, jarohatlanib qaytdi, uch farzandni kamolga yetkazdi. Uning Temur, Saida va Komil ismli uch farzandi bor – uchovi ham oliy ma’lumotli. Qizi Manzura yadro fizikasi bo‘yicha yirik mutaxassis – jumhuriyatimizda ayollar ichida yagona fizika-matematika fanlari doktori. Manzuraning qizi Laylo – rassom. Ammo afsuski, Sobiraga bolalarining rohatini ko‘rish nasib etmadi, u hayotdan ko‘z yumdi. Biroq ot bosmagan yerlarni toy bosadi deganlaridek, Sobira ko‘rmagan yaxshi kunlar uning farzandlari va nabiralariga nasib etsin...

Shular haqida o‘ylarkanman, birdan xayolimda she’riyatimiz ko‘kda yulduzday charaqlab so‘ngan – alamdiyda shoirimiz Cho‘lponning satrlari-la mustaqil jumhuriyat fuqarolariga hayqirgim keladi:

Tiriksan, o‘lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsan,
Kishan kiyma,
Bo‘yin egma,
Ki sen ham hur tug‘ulg‘onsan!

Xolida AHROROVA

Hayotiy xotiralar

YAQIN O‘TMISHIMIZDAN LAVHALAR

Shu kunlarda Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, madaniy-ma’rifiy anjumanlar, adabiy uchrashuvlar, tantanalar yurtimiz bo‘ylab “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan bosh g‘oya asosida keng nishonlanmoqda. Ushbu qutlug‘ bayram arafasida jonajon O‘zbekistonimizning bugungi yuksak taraqqiyot darajasi, ko‘p millatli xalqimizning farovon hayoti o‘z-o‘zidan – osonlikcha qo‘lga kiritilmagani, buning uchun el-yurtimiz ne-ne mashaqqatli yo‘llarni, og‘ir va sinovli kunlarni boshdan o‘tkazgani, murakkab to‘siq va dovonlarni matonat bilan yengib o‘tgani beixtiyor ko‘z o‘ngimdan o‘tadi.

G‘oyat tez sur’atlarda o‘zgarayotgan bugungi dunyo mamlakatimizni barqaror rivojlanayotgan Yangi O‘zbekiston sifatida taniydi Uchinchi Renessansning mustahkam poydevori qo‘yilayotgan qudratli davlat sifatida biladi. Nafaqat mintaqamizda, balki butun jahonda Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansning ijodkori va muallifi sifatida Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev e’tirof etilmoqda. Bu bejiz emas. Zero davlatimiz rahbarining uzoqni ko‘zlagan tashabbuslari bilan keyingi o‘n yilda, xususan mintaqamizning siyosiy arxitekturasi o‘zgarib, hayotbaxshlik kasb etdi.

Xalqimizda “Kim edigu kim bo‘ldik” degan da’vat bor. Rostdan ham, kim edigu, kim bo‘ldik? Men ham jonajon yurtimning vatanparvar bir fuqarosi sifatida hayotimda kechgan ayrim lavhalarni xotiramdan o‘tkazar ekanman, shu o‘tkir savolga samimiy, chin yurakdan javob bergim keldi.



BIRINCHI XOTIRA

1998-yil oktabr–noyabr oylari.

Kamina birinchi marta xorij safariga chiqqan kunlar. Chexiyaga – Praga shahriga borganman. Malaka oshirish uchun. Borgunga qadar chekilgan mashaqqatlar haqida o‘ylasam, o‘z sabrim-u asabim chidamiga balli deb yuboraman, haligacha.

Boshidan so‘zlab bera qolay. Respublika radiosining “Yoshlik” studiyasida ish boshlagan kezlarim. Rahbarimiz huzuriga chaqirib qoldi. Seni xorijdagi radiolardan biriga malaka oshirishga yuboramiz, dedi. Endi desangiz, shodligimga ta’rif yo‘q. Axir, kechagina oliy o‘quv yurtini bitirib kelgan xodimga bildirilgan ishonchdan quvonmay bo‘ladimi? Kerakli hujjatlarni tayyorlashga kirishdim. Tegishli tashkilotlar suhbatidan o‘tdim. Radiomiz kattalari ham bir-bir suhbat va imtihon qilishdi. “Elchixonaga bor”, “viza ol” deganday yumushlarni ham yugurib-yelib oxiriga yetkazdim. Endi bir ish qoldi, u ham bo‘lsa... Xorijga chiqadigan kishilarga Markaziy bank kursi bo‘yicha 1 000 dollargacha pul ayirboshlash mumkin, deb eshitgan edim. Shu choqqacha o‘tgan tayyorgarlik ishlari bir bo‘ldi-yu, mana shu oxirgisi bir bo‘ldi. Markaziy bankka bosh muharrir o‘rinbosari telefon qildi, ish bitmadi. Bosh muharririmiz bog‘landi, bitmadi. Rais o‘rinbosari harakat qildi, natija yo‘q. Har bir telefondan keyin kamina halloslab bankka chopaman. “Sizga falonchi ustoz qo‘ng‘iroq qilgan edi, shunga kelgandim”, deyman. Har gal boshimdan-oyog‘imgacha razm solishadi-da, ertaga falon soatda keling, deyishadi. Aytilgan paytda yetib boraman, lekin falon soatda yetib keling, degan odamning o‘zi joyida bo‘lmaydi. Kuttirib-kuttirib, ne paytlarda keladi. Keladi-yu yana allanimalarni bahona qiladi. Hamma illat shundaki *(albatta, buning sababini keyin tushunganman)*, bozor kursi bilan davlat kursi o‘rtasidagi tafovut anchagina. Axir rais o‘rinbosari katta boshini kichkina qilib, o‘zi bankka bordi va ish hal bo‘ldi. O‘shanda ham 1 000 dollar emas, 500 dollar qo‘limga tegdi. Kamina shunga ham xursand. “Xudo xohlasa, shu mablag‘ senga yetib ortadi, – deya rahbarimiz yupatdi. – Omadingni bersin. Yaxshi borib kelgin”.

Radio yaqinidagi mehmonxonaga joylashdik. Dunyoning juda ko‘p mamlakatlaridan men kabi jurnalistlar kelgan ekan. Ular bilan birgalikda darslarga qatnay boshladik. Bo‘sh vaqt topilishi bilan radioning o‘zbek xizmati xodimlari qoshiga yuguraman. Axir o‘qiyotganlarimni amaliyotda qo‘llashim kerak. Bir kuni bizga jahon siyosatidan bir o‘qituvchi dars bera boshladi. U avvaliga hammamiz bilan bir-bir tanishib chiqdi. Birov Polshadan, birov Belarusdanman, dedi, kimdir Slovakiya, yana kimdir Rossiyadan, yana allakim Olmoniyadan kelganini aytdi. Navbat menga yetdi.

– Where are you from? *(Siz qayerdansiz?)*

– I come from Uzbekistan *(Men O‘zbekistondan kelganman).*

– Pakistan?..

– No sir, from Uzbekistan *(Yo‘q, janob, O‘zbekistondanman).*

U hech narsa eshitmaganday, “Afganistan?” deydi.

Men endi biroz asabiy javob qaytaraman:

– No, I’m not from Pakistan or Afghanistan. I’m from Uzbekistan, Uzbekistan! *(Yo‘q, men Pokistondan ham, Afg‘onistondan ham emasman. O‘zbekistondanman, O‘zbekistondan!)*

Shundan keyin u uzr so‘rab, bunday davlatni bilmasligini aytdi. Keyin ko‘nglimni ko‘tarish uchunmi, menga mamlakatingiz haqida darsdan keyin so‘zlab berasiz, dedi.

Vaholanki, o‘sha paytda yurtimiz mustaqil davlat bo‘lganiga 7 yil bo‘lgan edi. Rosa xafa bo‘lganman, ko‘nglim cho‘kkan, to‘g‘rirog‘i o‘zbekni, O‘zbekiston davlatini tanimaganlari menga alam qilgan edi.

Shukrlar bo‘lsin, bugun o‘zbekni ham, O‘zbekiston degan ulkan mamlakatni ham hamma biladi. Keyingi yillarda xorij safarlariga borgan chog‘larimda bir narsaga ko‘p bora guvoh bo‘ldim: O‘zbekiston nomini eshitganida, o‘z hayratini yashirmayapti. Hatto men bilan esdalik uchun birga rasmga ham tushdi. Va, albatta O‘zbekistonga boraman, Toshkentni, Samarqandni, Shahrisabzni, Buxoro-yu Xorazmni bir borib ko‘rmasam bo‘lmaydi, deyishdi. Sportsevarlari esa O‘zbekistonga borsam, dunyoning eng kuchli shaxmat ustasi Nodirbek Abdusattorov bilan, yoki boksyor Hasanboy Do‘stmatov bilan, yoki futbolchilaringiz bilan suratga tushaman, deb niyat qildi. Odamga yoqadi-da, shunday gaplar.

Keyin haligiday pul ayirboshlash bilan bog‘liq muammolar butunlay yechildi. Konvertatsiya masalalari allaqachon hal qilingan. Qancha puling bo‘lsa, almashtirib olaver. Banklar ochiq. Seni iliq kutib oladi. Birpastda ishingni bitirib beradi.

Ko‘p shukr...

IKKINCHI XOTIRA

2000-yillar edi, chamasi. Amakim bilan birgalikda Qozog‘istonga – Chimkentga bormoqchi bo‘ldik. Muddao... sifatli va cho‘ntakbop kiyim-bosh olib kelish. Shu o‘ylar bilan “Chimkent, qaydasan?”, deya yo‘lga tushdik. Chegaraga kelsak, tumonat odam. Shaxsimizni tasdiqlovchi hujjatlarni tekshirishdi. Cho‘ntaklarimizni kovlab ham ko‘rishdi. Nima uchun borayotganimiz, qachon qaytishimiz, agar qoladigan bo‘lsak, qayerda qolishimiz... Xullas, so‘ramagan, tintishmagan hech narsamiz qolmadi. Bu kabi tekshir-tekshirlar kami qolgan ekanmi, Qozog‘iston tomonida ham bearmon so‘rab-surishtirdi. Hali ham amakim ko‘pni ko‘rgan, uddaburon odam. Ularga dadil-dadil javob qaytardi. Bir amallab o‘tib oldik. Bozorga ham bordik. U-bu narsa olgandek ham bo‘ldik...

Chegaradagi bir holatni o‘ylasam, hozir ham ichim og‘riydi. Qirq yoshlar nari-berisidagi juvon umr yo‘ldoshi bilan izillabgina turibdi. Chegarachilarga yalinadi. Ayolgina Toshkentga kelin bo‘lib tushgan ko‘rinadi, onamning ahvoli og‘ir ekan. Tezroq o‘tmasam bo‘lmaydi. Jon aka, yordam qiling, deydi. Chegarachi, meni nima ishim bor seni onang bilan. Xizmat vazifamni bajaryapman, deydi qo‘rslik bilan. Yana onangni kasal yotgani haqida ma’lumotnoma bormi, deganini eshitib, mening ham jahlim chiqib ketdi.

Ey, aka, ona u tomonda bo‘lsa, qiz bu tomonda bo‘lsa. Ma’lumotnoma so‘rashingizda mantiq bormi, o‘zi? Biz keyinroq o‘tarmiz. Shu oilani o‘tkazib yuboring, deyman zarda qilib. Siz o‘zingizni biling, deb u ham gapdan qolmaydi.

Amakimning bir do‘sti bor ekan, kechani o‘sha manzilda o‘tkazdik. Ertasi tushga yaqin yurtga qaytish uchun chegara postiga keldik. Odam ko‘p. Janjal-to‘polonlarni ko‘rsangiz. Odamlarning bozor sumkalari ochilib, narsalari sochib tashlangan, yig‘i-sig‘i... Bu manzaralarni ko‘rish juda ayanchli edi. Senlar kelib bozorlar qimmatlashdi. Nega bitta narsadan ikkita olding, sotasanmi, deya piching-u ta’nalarni aytmaysizmi?.. Ta’ma ilinjida aytilgan balanddan kelishlar dilimizni og‘ritdi. Lekin nima chora ham qilardik. U tomondagi sansalorlik yetmaganidek, o‘zimiznikilar ham gohida ulardan o‘tib tushar ekan. Xullas, it azobida o‘tib oldik.

Yana bir gap. Taniqli xonanda Toshpo‘lat Matkarimov bilan Yassaviy bobomizni ziyorat qilish istagi bilan Turkistonga bormoqchi bo‘ldik. Men chegaradagi azoblarni o‘yladim-u, xayolimda: Toshpo‘lat aka ikki el uchun ham sevimli xonanda bo‘lsa, bunday muammolarga duch kelmaymiz, Xudo xohlasa, degan ojizgina yupanch ham bor edi. Qayoqda!.. Ular na taniqli hofizni, na uning ziyorat istaklarini hurmat qilishdi. Hammani bir tekshirgan bo‘lsa, bizni o‘n tekshirdi, desam ishonavering. Hatto hofiz akamiz asabni asrash uchun ularning qo‘llariga to‘rt-besh tanga bergan ham chiqar. Bunisi menga qorong‘i. Harqalay kassaga qandaydir to‘lovlar qilganimiz yodimda.

Ulug‘ ajdodimizni ziyorat qildik. Shu xayrli amal ko‘nglimizdagi ozorlarga malham bo‘ldi. Bobomiz qoshida xalqimizni, Vatanimiz ravnaqini, chegaralar ochiqligini tilab duolar qildik.

Bugun bunday muammolar yo‘q. Shaxsan o‘zim juda ko‘p ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bilan qo‘shni mamlakatlarga borib keldim. Yaqinda ustoz Shavkat Rahmonning “Tanlangan asarlar”i taqdimotini o‘tkazish niyatida O‘shga safar qildik. Bizdan, hatto xorijga chiqish-qaytish pasportini ham so‘ragani yo‘q. AD pasportimiz bilan o‘tib keldik. Kuni kecha Abay boboning tavalludiga bag‘ishlangan katta tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbirga qozoq bovurlarimiz ham kelgan ekan. Ulardan so‘rayman, kecha kelgan edinglarmi? Yo‘q, bugun ertalab yo‘lga tushdik. Mana ko‘rib turganingizdek, siz bilan birga tadbirda ishtirok etmoqdamiz, deyishdi. Ha, ular bu haqda juda oddiygina qilib gapirdi. To‘g‘ri-da, chegarlardan o‘tish-qaytish bugunga kelib katta muammo hisoblanmay qoldi. Chegaraga kelasan, pasportingni ko‘rsatasan. Ortiqcha tekshiruvlar yo‘q. Sen uchun yo‘llar ochiq. Qanday yaxshi.

Ko‘p shukr...

UCHINCHI XOTIRA

Agar xotiram pand bermasa, plastik kartochka tizimiga eng birinchilardan bo‘lib teleradiokompaniya o‘tgan edi. Maoshlarimiz yuz foiz kartaga o‘tadi. Ammo bizga naqd pul ham kerak. Axir, bozor-o‘char deganlariday, bozorlikka esa plastik karta orqali pul to‘lashning imkoni yo‘q. Shularni o‘ylab, kompaniya rahbariyati haftada bir marta kanal xodimlari uchun naqd pul olish imkonini qilib qo‘ygan. Uzundan uzoq navbatda turib, ma’lum bir miqdorda pulimizni naqdlashtiramiz. Qani naqdlashtirgan pulimiz bir haftalik xarajatlarimizga yetsa. Yo‘lkiraga yetsa, choyga yetmaydi. Choyga yetsa, ro‘zg‘or uchun ul-bul narsa xarid qilishga yetmaydi. Keyin nima qilamiz – ATSlarga boramiz. Kassir qizlardan iltimos qilamiz. Ular ham hushi kelsa, qiladi, hushi kelmasa, chiroyli qilib javobimizni berib yuboradi. Bundan tashqari, ularga bizdan tashqari iltimos qiluvchilar ham ko‘p bo‘ladi. Hammasidan ham og‘iri, ba’zan naqd pulga zoriqib qolgan paytlarimiz, do‘konlarga borib sarg‘ayamiz. Aravachasiga u-bu narsa solayotgan xaridorlarning oldiga borib, sekin so‘raymiz. Siz naqd pulda savdo qilasizmi? Ha deb javob bersa, men plastik kartam orqali to‘lovingizni qilib bersam, mening naqd pulga ehtiyojim bor edi, deyman. Bu iltimosga birov xo‘p deydi, birov bor, toshingni ter, deydi. Yana birining ahvoli menikidan pesh bo‘lmaydi. U ham to‘lovni plastik karta orqali qilishini aytib, uzr so‘rab qo‘yadi.

Men-ku, poytaxtda yashayman. Har holda naqd qilish uchun imkonim bo‘ladi. Viloyatdagilarga juda og‘ir bo‘lgan.

Yaqinda mustaqilligimizning 35 yilligi oldidan bo‘ladigan tadbir va anjumanlarda ishtirok etish uchun Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga borib keldik. Zarafshon va

Uchquduq shaharlariga, Muruntov, Pistali kabi konlarda bo‘ldik. Plastik karta haqida gap borganda, bizni olib yurgan shofyor aka, biz ham yigirma besh foiz evaziga bozor qilar edik, dedi.

Menga fizikadan saboq bergan domla bor. Bir kuni domla menga telefon qilib, plastik kartadagi pulni naqd qilishda yordam so‘radi. Qani, shu paytda mening ahvolimni so‘raydigan odam bo‘lsa. Ammo ustozga dardimni qanday aytaman? Yig‘lab borgan edim, o‘kirib chiqdi, qabilida ish tutishga oriyatim yo‘l qo‘ymadi. Unga, albatta, yordam qilishimni aytdim. Qarshi shahrida yashaydigan dasti uzunroq bir tanishimga qo‘ng‘iroq qildim. Holatni tushuntirdim. Yordam berishini o‘tindim. U ham yo‘q demadi, yoki deyolmadi. Domla kelsinlar, dedi. Domla Kitob tumanidan taksiga o‘tirib, tanishimni izlab boribdi. Pulini naqdlashtirib, yana taksiga o‘tirib qaytibdi. Borish falon ming, qaytish yana shuncha... Bir necha kundan so‘ng ustoz telefon qilib, menga rahmat aytdi. Baraka top, dedi. Men ham so‘zimni ikki qilmagan tanishimga rahmat aytib qo‘ydim. Keyinroq yo‘lim tushib qishloqqa borib, yaqin do‘stlardan eshitgan gapim, rosa asabimni buzdi. Haligi dasti uzun tanishimiz domlaning peshana terisini ellik foiz evaziga naqdlashtirib bergan ekan. Ammo domla bundan aslo nolimay, meni – shogirdining qo‘lidan ish kelib qolganini aytib, har joyda quvonchini izhor qilib yurgan ekan. Tanishimga telefon qilib, janjalcha ham qilib olganim, yodimda. Shu voqeani oila davrasida ham aytib bergan edim. Shunda to‘rtinchida o‘qiydigan qizim, dada, qishloqda bankomatlar yo‘q ekan-da, a, dedi. E, qizim, u paytlarda bankomatlar shahri azimda ham bo‘lmagan, deb aytganim bilan tushunarmidi? Ertakday, cho‘pchakday tuyuladi-da, bugungilar uchun... Ishqilib, ertakday o‘tib ketgani rost bo‘lsin!..

Bugun bunday muammolar yo‘q. Har qadamda bankomat. Bozorga borsangiz ham, do‘konga borsangiz ham. Ochig‘i, endi naqd pul olib yurgandan ko‘ra, plastik karta yaxshiroq. Hatto hozir plastik kartani olib yurishga ham ehtiyoj qolmadi. Telefoningizga “Payme”, “Click”mi shunga o‘xshash dasturlarni yuklab olasiz. Istalgan to‘lovni amalga oshirib ketaverasiz.

Ko‘p shukr...

TO‘RTINCHI XOTIRA

Milliy universitet talabasi sifatida o‘tgan yillarim oltindan ham a’lo bo‘lgan, sizga aytsam. Jurnalistika fakultetida ustozlar – Anvar Shomaqsudov, Hamidulla Akbarov, Boybo‘ta Do‘stqorayev, Saydi Umirov, Muxtor Xudoyqulov, Omonulla Madayevdan saboq olganmiz. Bugun ularning ba’zilari hayot, ba’zilari olamdan o‘tgan. Borlariga uzoq umr, o‘tganlarini oxirati obod bo‘lishini tilaymiz. Ular bizga jurnalistika amaliyot bilan mushtarak bo‘lishi kerak. Shu bois tahririyatlarga borishga erinmanglar, maqolalar yozib faol bo‘lishga harakat qilinglar, deyishardi. Biz ularning o‘gitlariga amal qilib, birovimiz televideniyega, birovimiz radioga, yana birovimiz gazeta-jurnal tahririyatlarga borganmiz. Ba’zilar talaba paytidayoq yarim stavka ishga ham kirib oldi. Kamina ham teleradiokompaniyaga joylashganman. U paytlarda ishga kirish uchun “propiska” bo‘lishi shart edi. Lekin talabani o‘qishga kirgan zahoti vaqtinchalik yashash manzili bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazadi. Shu tariqa o‘qishni bitirgunga qadar hech bir talabada “propiska” bilan bog‘liq yurak ezdi muammolar bo‘lmaydi.

Hamma g‘am-tashvish diplomni qo‘lingizga olganingizdan keyin boshlanadi. Unga yalin, bunga yolvor. Ba’zan olti oyga, ba’zan bir yilga vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tkazadi. Belgilangan vaqti tugashi arafasida xodimlar bo‘limi ogohlantiradi. Tezroq hujjatlaringizni to‘g‘irlang! Yo‘qsa, ishdan bo‘shatishga majbur bo‘lamiz... Yana yugur-yugur boshlanadi. Pasport bo‘limidagilarning qosh-qovog‘i, do‘q-po‘pisasi, yig‘ilgan hujjatlarda arzimagan kamchilik topilib qolsa, “Bor jo‘na” deb zarda qilishlariga ham chidaysiz. Boshqa ilojimiz ham yo‘q-da. Axir ishimiz bitishi kerak, ular bilan sanmanga borsak, pirovardida jabrini o‘zimiz tortamiz. Shunday qilganlar ham bo‘lgan. Keyin ro‘yxatga olish ortga surilgan. Bu orada uni ishdan bo‘shatib yuborgan. O‘rniga boshqani olgan. U odamning yana boshqa bir ish topgunga qadar qancha asabi ketgan, qancha vaqti uvol bo‘lgan. Eh... eslagisi ham kelmaydi kishining.

Toshkent shahrida doimiy ro‘yxatga olish komissiyasi ish boshladi. Men ham bir yaqin tanishimizning uyiga doimiy ro‘yxatda turish uchun hujjatlar – ishxonadan tavsifnoma, ro‘yxatga qo‘yiladigan xonadon egasining roziligi *(notaruis tasdiqlagan bo‘lishi shart)*, o‘zimga tegishli va uyning barcha hujjatlaridan nusxa tayyorladim. Komissiyaga topshirdim. Rad etildi. Ikki marta topshirdim. Javob o‘sha. Navbatdagi shunday javoblarni ko‘rib, xafa bo‘lib qaytayotsam, bir yigit oldimga kelib, rad javobi oldingizmi, deb so‘z boshladi va davom etdi, istasangiz sizga yordam berishim mumkin dedi, u. Ko‘zlarim yonib, yaxshi bo‘lardi, ammo siz menga qanday yordam bermoqchisiz, deb so‘radim. U ichki ishlar xodimi ekanini aytib, siz kimningdir xonadoniga hujjat yig‘mang, balki “Toshkent shahridan uy-joy sotib olish va doimiy ro‘yxatda turish uchun” degan bandi bo‘yicha hujjat to‘plab topshiring. Chunki komissiyadagilar jurnalistlarning uy-joy olishiga ko‘pam ishonmaydi. Imkoni bo‘lsa, tavsifnomaga teleradiokompaniyaning birinchi rahbari yo o‘rinbosari imzo cheksin. Direktor, uning o‘rinbosari, bosh muharrirlarning imzosi bilan kelsa, ishingiz bitmasligi mumkin. Ishingiz bitsa, uy ham olarsiz, Xudoning karami keng, dedi. Men u aytganidek, hujjatlar qildim va topshirdim. Nihoyat do‘ppini osmonga otadigan xushxabar bo‘ldi. Menga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatgan o‘sha akaga katta rahmat. U odamni boshqa ko‘rmadim. Qayerda bo‘lsa ham, boshi omon bo‘lsin. Bir akamiz o‘z uyini mening nomimga o‘tkazib berdi, bir katta g‘alvadan qutildim. Turarjoydan ro‘yxatdan o‘tganimni eshitib, bir-ikkita hamqishloqlarim nomingga uy olib turaylik, sendan boshqa ishonchli odamimiz yo‘q, deyishdi. Albatta, ularning taklifini qabul qildim. Bahonada menga uyini rasmiylashtirib bergan akamizning uyini yana o‘ziga qaytarib berdim.

Kunlardan bir kun shov-shuvli xabar tarqaldi. “Propiska” degan narsa bekor qilinibdi. Buni eshitganim zahoti o‘z nomimdagi uylarni bir haftaga qolmay egalariga qaytardim. O‘zim esa qarz-qavola qilib, “Панельный” degan tomonlardan ikki xonali uy oldim.

Yaqinda Italiyada tahsil olayotgan ukamiz maslahat qilib qoldi. Aka, Toshkentdan uy olmoqchiman, maslahat bersangiz. Yangi uylardan olsammikan, yoki... dedi. Qanday yaxshi! U qanday uy olish haqida o‘ylayapti. “Propiska” haqida emas. Bir vaqtlar Toshkent shahrida doimiy ro‘yxatga turishni orzu ham qilib bo‘lmasdi. Bugun bunday muammolar endi yo‘q. Ishga kirmoqchi bo‘lsang, “propiska” so‘ramaydi. Yaxshi kadr bo‘lsang, o‘z ishingni halol bajarsang, bo‘ldi. Boshqa talab yo‘q. Hozir o‘yga tolaman, hammasi oson ekan-ku, hal qilsa bo‘lar ekan-ku. Nega shu paytga qadar xalqqa buncha azob, mashaqqatni ravo ko‘rgan ekan...

Qo‘ying, shularni eslab bosh qotirmaylik. Bugun hech kimga mamlakatning istalgan joyidan uy-joy olishiga, ishlashiga to‘siqlar yo‘q-ku. Bir ustozimning bu kunlarni parishon qilmasin, degan iborasi bor. Menga juda yoqadi shu ibora. Men ham astoydil duo qilaman, bu kunlarni parishon qilmasin. Vatanimiz obod, xalqimiz farovon yashasin. Hammasi uchun, takror va takror shukrona qilsak arziydi.

Ko‘p shukr...

NIHOYASIZ XOTIRALARNING YANA BIRI... VA XAYRLI XOTIMA

Mening onam umr bo‘yi daladan beri kelmay yashadi. Yoshligining eng gul damlari egatlarda egilib o‘tdi. Ustoz Abdulla Orifning “Ushoq chigitni ham etmay deb uvol, Million egatlarga egilgan xalqim” degan iztirob-u alamlarga yo‘g‘rilgan satrlari aynan mening onam kabi mehnatkash, zahmatkash xalqimiz haqida. Bir misqol ham yolg‘oni yo‘q, chin gaplar bular. Onam eslaydi: “Seni yo‘rgaklab olib, dalaning bir chetiga qo‘yib ishlaganman. Ishga chiqmasak, rais-u brigadir o‘dag‘aylab, uygacha bostirib kelardi. Ularning haqoratlarini eshitgandan ko‘ra, dalada ishlagan afzal edi. Sizlar dalada katta bo‘lgansizlar, bolalarim”.

Bu faqat bizning oilamizga xos ahvol bo‘lmagan, albatta. Hammaning turmushi shu zaylda o‘tgan. Xo‘roz hamma joyda bir xil qichqirgan-da. Keyin dalalarga borish qismati bolalarga ko‘chgan. Maktab bolalari, oliy o‘quv yurtlari talabalari, turli tashkilotlar xodimlari – o‘qituvchi, shifokor, hamshira va shu singarilar... paxta dalalarida “javlon” urgan. To‘g‘rirog‘i, shunga majbur bo‘lgan, yo‘q majbur qilingan. Sobiq Ittifoq davrida bu oddiy hol bo‘lgan. Hech kimga e’tiroz qilishga jur’at etmagan. Ko‘plarning xayoliga e’tiroz qilish fikri ham kelmagan bo‘lsa kerak. Butun dunyo ahli bizga o‘xshab mehnat qiladi, deb o‘ylagan-da, bu jafokash xalq. Ardoqli shoirimiz Muhammad Yusuf yurak-bag‘ri qon bo‘lib: “Hatto kech kuzda ham tugadi ko‘sak, / Serhosil O‘zbekiston dalalari. / Dalaga chiqishar ko‘tarib etak, / Birinchi sinf bolalari... / Sovuq deysizmi? / Ha, qahraton! / Qo‘lchalar qo‘yinda qotgan non, / Ammo nima qilsin, paxta shon, / Birinchi sinf bolalari” degan satrlarni bitgan edi.

Onamning alamdan yig‘laganini bir marta ko‘rganman. O‘shanda onamga ham, dadamga ham bildirmay, men ham yig‘laganman. Yuragim yig‘lagan... Voqea bunday bo‘lgan edi. Bir kuni dadam ishdan kech qaytdi. Biz bolalar uxlashga yotganmiz. Singillarim allaqachon uxlab qolgan. Men ham onamdan nega uxlamayapsan, degan tanbehni eshitmaslik uchun o‘zimni uxlaganga solib yotibman. Onam, har galgidek ishdan kech qaytgan, dadamga dasturxon yozdi. Ovqat keltirdi. Choy keltirdi, bir piyola quyib uzatdi. Keyin alam bilan yig‘lay boshladi: “Shuhrat *(u paytlarda ota-onalar bir-birlariga to‘ng‘ich farzand ismi bilan murojaat qilgan. Otamning ismi Shuhrat emasligini esimni taniganimdan so‘ng bilganman)* bu nima azob, ertadan kechgacha daladan beri kelmaymiz. Sahar ketamiz, kech qaytamiz. It yotish, mirza turishlar jonimga tegdi. Koshki mehnatimizni qadriga yetsa. Beradigan puli bu oydan u oyga yetmaydi. Biz ham bir kungina halovat topib yasharmikanmiz? Bolalarni qarang, bolalarni. Sho‘rginalarni uyga tashlab, ishga ketamiz, ertadan kechgacha yo‘l qarab o‘tiradi. Onam qachon kelarkan, dadam qachon kelarkan. Mana bugun ishdan kelsam, kenja qizimiz qo‘lida paxta yog‘iga botirilgan bir burda non, yarimta pomidor ushlab uxlab qolibdi. Kunda, kun ora shu ahvol. Bularning kelajagi nima bo‘ladi bu turishda? Qachon bizning hayotimiz o‘nglanadi? Qachon biz ham odamday yashaymiz? Xudoga nima yomonligimiz bor ekan bizni”.

Dadam onamni, onasi, iymoning salomat bo‘lsin, eshitgansan-ku, iymonning yarmi sabrda, yarmi esa shukrda, deb. Bizga ham Xudoning aytgani bordir? Butun umr shunday chang-tuproqqa belanib o‘tib ketmasmiz. Xufton ko‘nglimizni yorug‘ qiladigan damlar ham bo‘lar, deb yupatadi yig‘lamoqdan beri bo‘lib.

Allohning marhamati bilan mamlakat mustaqil bo‘ldi. O‘z bayrog‘i, tug‘rosi, madhiyasi, davlat tili bor barcha ozod mamlakatlar kabi bizning ham O‘zbekistonimiz erkin, hurriyati o‘z ilkida bo‘lgan davlatga aylandi. Ammo dala ishlariga, ko‘cha-ko‘ylarning supur-sidiriga... Eh, nima ish bo‘lsa ommaviy ravishda safarbar qilishlar tugamadi. O‘quvchi-yu talabalarning darsi egatlarda davom etdi. O‘qituvchilar esa maktab-u sinfxonalarda dars berish o‘rniga necha kilo paxta terding, normangni bajarmasang gap eshitamiz, degan so‘roq-savol bilan kunlarni o‘tkazdi. Poytaxtda ahvol birmuncha yaxshi, ammo viloyatlarda, chekka hududlarda mustaqillik nomigagina bo‘lgan edi, desam to‘g‘ri bo‘ladi. Tashkilot-u idoralarda mehnat qilayotgan kishilar paxta terimiga borishning imkonini qila olmasalar, kimlargadir uch-to‘rt so‘m olib borib berishgan yoki o‘rinlariga kimnidir yollashgan. Shifokor, hamshira, o‘qituvchi do‘stlarimdan eshitganman bu narsalarni.

Biz ham birinchi bosqichda o‘qib yurgan kezlarimiz Sirdaryoning “Oq oltin”iga paxta terimiga borganmiz. Yuqori bosqichda o‘qiydigan aka-opalarimiz aytishicha, O‘zbekiston Milliy universiteti talabalari har yili shu joylarga hasharga kelar ekan. Hashar deganlari qish ostonasiga qadar davom etar ekan. Odatda, yotoqjoylar – dala shiyponlari, maktab binolari bo‘ladi. Bir xonada o‘n besh-yigirma chog‘li talaba joylashadi. Tong sahar turamiz, paxta dalasiga otlanamiz. Terganlarimizni peshinda bir, shomda bir topshiramiz. Yemak-ichmak ham o‘ziga yarasha. Ertalab nima yeding, makaron, tushda-chi, makaron, kechda ham makaron deyishadi-ku. Shunaqa bo‘lganda, o‘zi.

Bugun bu voqealarni yosh uka-singillarimga so‘zlab bersak, ertak eshitayotganday ishonishni ham, ishonmaslikni ham bilmay turadi. Biroq biz farzandlarimizga bu kabi hayotiy hikoyalarni tez-tez aytib turishimiz zarur. Ular bu kunlarning qadriga yetishlari uchun, kechagi mashaqqatli hayot haqida bilishlari kerak. Axir Qodiriy bobo ham “O‘tkan kunlar” avvalida, moziyga qaytib ish tutish xayrlidir deydilar, degan-ku. Men ham u kunlarni shunchaki eslayotganim yo‘q, Xudoga takror-takror shukr qilish uchun esladim. Hamma-hammasi uchun shukr.

Ko‘p shukr...

G‘ayrat MAJID,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o‘rinbosari



Millat fidoyilari

VATAN SARHADLARIDA MANGU QOLGAN NOM



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Katta leytenant Kamoliddin Toshpo‘latov xotirasi – harbiy jasorat va Vatanga sadoqat timsoli. Vatan himoyasi – sharafli kasb, ayni paytda yuksak mas’uliyat. Ona yurt sarhadlarini ko‘z qorachig‘idek asrash, xalq tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash yo‘lida jonini fido qilgan harbiy xizmatchilar xotirasi esa xalq qalbida abadiy yashaydi.

Katta leytenant Kamoliddin Toshpo‘latov ana shunday fidoyi harbiylardan biri edi. U qisqa, ammo mazmunli umrini Vatanga xizmat qilishdek ulug‘ maqsadga bag‘ishladi. Uning hayot yo‘li bugungi yosh harbiy xizmatchilar uchun jasorat, burchga sadoqat, matonat va fidoyilikning yorqin namunasidir.

Kamoliddin Toshpo‘latov 1974-yili Namangan tumanida ishchi oilasida tug‘ilgan. Yoshligidanoq tartib-intizomli, qat’iyatli va bilimga chanqoq bo‘lib voyaga yetdi. Harbiylikka bo‘lgan qiziqishi uni Toshkent oliy umumqo‘shin qo‘mondonlik bilim yurtiga yetakladi. U mazkur bilim yurtini 1996-yilda imtiyozli diplom bilan tamomlab, o‘z hayotini Vatan mudofaasiga bag‘ishladi.

Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida 1996–2000-yillar davomida turli lavozimlarda harbiy xizmatni o‘tagan Kamoliddin Toshpo‘latov o‘z kasbiga chin dildan mehr qo‘ygan, harbiy qasamyodga sodiq, vazifasiga mas’uliyat bilan yondashadigan ofitser sifatida hamkasblari orasida hurmat qozondi.

Uning xizmat faoliyati oddiy bir lavozim yoki kundalik vazifalar emas, balki Vatan oldidagi burchni amalda namoyon etish maktabi bo‘ldi. Harbiy xizmatchi uchun eng oliy mezon – buyruqqa itoat, jangovar shaylik, o‘zaro birdamlik va eng og‘ir vaziyatlarda ham sarosimaga tushmaslikdir. Kamoliddin Toshpo‘latov ana shu fazilatlarni o‘zida mujassam etgan ofitser edi.

JASORAT SINOVI

2000-yili Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida bo‘lib o‘tgan xalqaro terrorchilarga qarshi janglarda Kamoliddin Toshpo‘latov qahramonlarcha halok bo‘ldi.

Uning hayotdan ko‘z yumishi yaqinlari, safdoshlari uchun og‘ir judolik bo‘ldi. Biroq Vatan himoyasi yo‘lida berilgan fidoyi umr hech qachon behuda ketmaydi. Chunki xalq osoyishtaligi, yurt sarhadlari daxlsizligi va kelajak avlodning tinch hayoti yo‘lida jonini fido qilgan insonlarning nomi tarix sahifalarida, xalq xotirasida mangu yashaydi.

Kamoliddinning safdoshlari uni nafaqat jasur ofitser, balki samimiy, mehribon, tashkilotchilik qobiliyatiga ega, harbiy xizmatchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratgan inson sifatida eslaydi.

Uning sinfdoshi Farhodjon Akbarov Kamoliddinning maktab yillaridayoq faol va tashabbuskor bo‘lganini ta’kidlaydi. She’r o‘qish, sport musobaqalari, fan olimpiadalarida faol qatnashgan bu yigit o‘quvchilik davridayoq o‘zining intiluvchanligi bilan ajralib turgan.

QAHRAMON NOMI – XALQ XOTIRASIDA

Bugun qahramon harbiy xizmatchining nomini abadiylashtirish, uning ibratli hayot yo‘lini yosh avlodga yetkazish borasida amalga oshirilayotgan ishlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismda katta leytenant Kamoliddin Toshpo‘latov xotirasiga 50 tup ko‘chat ekilib, xotira burchagi tashkil etilgani uning Vatan himoyasi yo‘lidagi jasoratiga bo‘lgan yuksak hurmatning amaliy ifodasidir.

Bugun ushbu ko‘chatlarning har biri, go‘yo bir ramziy ma’noni anglatadi. Ular yashnar ekan, qahramon harbiy xizmatchining nomi ham avlodlar xotirasida yashayveradi. Daraxt – hayot, davomiylik va avlodlar vorisligi timsoli. Shu ma’noda, harbiy qism hududida qad rostlagan nihollar yosh askar va ofitserlarga Vatan uchun fidoyilik, mardlik va jasoratning hayotiy sabog‘ini berib turuvchi ma’naviy maskanga aylanadi.

Xotira burchagida mujassam etilgan ma’lumotlar esa harbiy xizmatchilarga o‘tgan avlod vakillarining jangovar yo‘li, ularning burchga sadoqati va Vatan tinchligi yo‘lida ko‘rsatgan jasoratini chuqur anglash imkonini beradi.

Kamoliddin Toshpo‘latovning nomi nafaqat harbiy qismda, balki uning tug‘ilib o‘sgan yurti – Namangan zaminida ham e’zozlanmoqda. Namangan shahridagi “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida katta leytenant Kamoliddin Toshpo‘latov xotirasiga bag‘ishlangan monumentning barpo etilgani qahramonning jasorati va Vatan oldidagi xizmatlariga berilgan yuksak ehtirom ifodasidir.

Mazkur monument nafaqat bir inson xotirasiga o‘rnatilgan yodgorlik, balki yosh avlodga qaratilgan ma’naviy saboqdir. Unga qaragan har bir yosh yurt tinchligi o‘z-o‘zidan kelmasligini, uning ortida mard va fidoyi insonlarning jasorati, ba’zan esa jonfidosi yotganini anglaydi.

MANGU XOTIRA, MANGU JASORAT

Katta leytenant Kamoliddin Toshpo‘latovning hayoti va jangovar faoliyati shuni ko‘rsatadiki, haqiqiy harbiy uchun Vatan tushunchasi shunchaki so‘z emas. U – qasamyod, burch, mas’uliyat va zarurat tug‘ilganda jonini ham ayamaydigan muqaddas e’tiqod. Uning hayot yo‘li bugungi harbiy xizmatchilar uchun harbiy kasbga sadoqat, jangovar ruh, matonat va fidoyilik maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

Oradan yillar o‘tadi. Avlodlar almashadi. Ammo Vatan sarhadlarini himoya qilib, ozodlik va tinchlik yo‘lida halok bo‘lgan fidoyi insonlarning nomi unutilmaydi. Chunki xalq xotirasi – eng buyuk yodgorlik.

Vatan uchun yashagan va Vatan uchun jonini fido qilgan insonning umri tugamaydi. Uning jasorati avloddan avlodga o‘tadi, nomi esa xalq qalbida mangu yashaydi.


Katta leytenant Kamoliddin Toshpo‘latovning porloq xotirasi – Vatan himoyachilarining mardlik va sadoqat yo‘lini yoritib turuvchi ma’naviy mayoq.



Dilmirza MIRZAYEV

Qadriyat

OQQAN DARYO



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Tog‘am Fayzi shoir Berdi o‘g‘li 1903-yilda Yakkabog‘ muzofotining Ajrim qishlog‘ida dunyoga kelgan va o‘tgan asrning 50-yillarida Qamashi tumanidagi Qo‘shtamg‘ali qishlog‘iga ko‘chib keladi.

Yigit yoshidan Xudo bergan iste’dod egasi bo‘lgan Fayzi o‘zicha doston va termalarni yodaki aytish bilan birga do‘mbira chalishni ham mustaqil o‘rgangan. Eng qizig‘i Fayzi shoir Berdi o‘g‘li birorta ustozning qo‘liga shogird tushmagan, yozma savodi ham bo‘lmagan. Keyinchalik mustaqil savod chiqarib, kitob va gazeta-jurnallar o‘qishni kanda qilmagan.

Men esimni taniganimda u kishining juvozi bo‘lardi, maktabdan qaytayotganimizda biz bolalar juvozxonaga kirardik, tog‘am ot bilan haydaladigan juvozda yog‘ chiqqandan so‘ng hosil bo‘lgan zig‘ir yog‘ni olib bo‘lgach, bizni juvoz kundasiga posangi qilib qo‘yilgan toshlarning ustiga o‘tirg‘izib qo‘yar, ot esa o‘zi aylanaverardi. Biz tosh bosgan bo‘lsak kerakda, bir muddatdan keyin chiqqan yog‘ni kadining bir tomoniga ulangan qamish naychani botirib, kundadan kadiga shimib olardi, olingan yarim litrcha yog‘ni “qoqlama” deyishardi, bu eng pishiq yog‘ bo‘lib, uning talabgori ko‘p bo‘lardi.

Aytishlaricha, Fayzi shoir urush yillari qishloqma-qishloq yurib, “qo‘shiq” aytib, do‘mbira chalib, kun kechirgan, birov bir burda non bergan, kimdir osh bergan. Oltmishinchi yillarga kelib, elda ancha ma’murchilik bo‘lib qolgan ekan. To‘ylarda baxshichilik qilib, doston, termalar aytib, xalq xizmatida bo‘lgan.

Tabibchilik, qushnochlikdan ham xabari bor edi, deyishardi. Chayon, biy chaqqan kishilarni “o‘qib” davolarkan. Sanchiqni ushlagan *(tuzatgan)*, “qopqoq *(odamning orqa kuragi)* ko‘targan” *(odamning kuragi yopishib ketishi)*. Tog‘am muallim Rustam G‘ofurovning so‘zlariga qaraganda, o‘tgan asrning 70-yillarida Qo‘shtamg‘ali bilan Beshqo‘ton qishlog‘ining orasidagi adirda “darvoza kam” degan o‘tish joyi bo‘lib, o‘sha yerda katta bir ilon, mahalliy xalq tilida “mor” *(katta ilon, aydahar ham deyishgan)* paydo bo‘lgan ekan. Shu ilonni ham Fayzi shoir “o‘qib” *(avrab)*, ketkizib yuborgan ekan.

Xalq orasida **Fayzi Devona** nomi bilan tanilgan Fayzi shoir Berdi o‘g‘li haqiqatan ham ilohiy qobiliyatga ega kishi bo‘lgan bo‘lsa, ne ajab.

Axir buyuk shoir Mashrab ham “Devonayi Mashrab” rutbasiga bejiz sazovor bo‘lmagan.

Fayzi shoirning ijodi yuqorida eslaganimizdek yodaki bo‘lgan, biron bir kitob yoki dostonni o‘qib o‘zlashtirmagan, eshitganlaridan, radio eshittirishlardan yodlagan, o‘zidan qo‘shib rivojlantirgan. To‘ylarda, davralarda aytgan doston va termalari, to‘rtliklari yodimizda qolgan. Afsuski, Fayzi shoir Berdi o‘g‘lidan yozma meros qolmadi.

Tog‘am Fayzi shoir haqida o‘ylar ekanman, ba’zida bolalik kunlarim yodimga tushadi...

O‘sha vaqtlar hozirgiday karnay-surnaylar, gumbalang qars musiqalar bo‘lmagan.

To‘ylarda tomning ustiga kinoning ovoz kuchaytirgich karnayini chiqarib, patefonda plastinka qo‘yishib, Komiljon Otaniyozov, Ma’murjon Uzoqov, Olmaxon Hayitovalarning ashulalari, Ro‘zimbek baxshi Murodovning “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonlari eshitilardi. Kechqurun bitta kino qo‘yib berilardi, u zamonlar to‘yda eng “zo‘r odam” kinochi edi. Qishlog‘imizdan Yaxshiboy Mo‘minov, Temir Xushvaqtov, keyinchalik Shahar Safarov kabi akalar kinochilik qilishgan. Agar ularga tuzukroq qarashmasa, birdan “svet” o‘chib qolardi, yoki kino uzilib qolardi. To‘ylar ham boshqacha edi, unda mehr-oqibat, fayz bor edi, to‘ylar ertalabdan kechgacha davom etar, ertasiga ertalab osh berilib, keyin ko‘pkari yoki kurash bo‘lardi. Ungacha bo‘lgan orada odamlar davra qurib o‘tirishgach, Fayzi shoir do‘mbirasini sozlab, qo‘shiq aytardi. Kuntug‘mish, Go‘ro‘g‘li, Ravshanbek, Avazxon to‘g‘risida doston va termalar o‘qib, xalqni xushnud qilardi...

Shoir do‘mbirasini olib, joylashib o‘tirib olardi-da, boshini bir yonga eggancha ko‘zlarini yumib, xonishini boshlardi. To‘yga kelgan mehmonlar soatlab o‘tirib, baxshini tinglardi...

– Burun o‘tgan zamonlarda, el yurti omonlarda, mag‘rib yo mashriq tomonlarda, Xorazmdan, Turkmandanmi, Chambil yoxud Chilbirdanma so‘ylayin, Go‘ro‘g‘limi Alpomishdan kuylayin, deb qo‘shig‘ini boshlardi. Xalq jon qulog‘ini berib tinglardi. U davrlar boshqacha edi-da...

O‘zi juvozda haydagan zig‘ir yog‘larini 10 litrlik idishlarda xurjuniga solib, Shahrisabzga borib sotib kelardi, tirikchilikda. Qo‘lida doim do‘mbirasi bo‘lardi. Borguncha ham, qaytgunchayam avtobusda odamlarga qo‘shiq aytib berardi.

Ayniqsa, yo‘lovchilar atrofdagi qishloqlar to‘g‘risida termalarga qiziqardi.

Bunda bordim Langari,
Haydab qo‘yilgan angari,
Kiygan kovushi zangori,
Boylarni ko‘pini ko‘rdim.

Kamarda bor Kattatoli,
Magazinchi To‘ra kali,
Odamining bari vali,
Qishloqning zo‘rini ko‘rdim.

Manov tog‘da Kaltatoyi
Bunda oqar Langar soyi,
Ko‘pdir ming qo‘yli boyi,
Baraka konini ko‘rdim.

Kunlarning birida qishloqdoshi Suyarboy uni “Polon kuni nevaralarning sunnat to‘yi, Samarqandning Narpayiga borib, oshnamni to‘yga aytib keling” deb jo‘natadi. Fayzi bobo aytuvchilikka ketadi. U paytlar hozirgiday mashinalar bo‘lmagan, asosiy ulov tuya, ot va eshaklar edi. Otda ketgan xabarchi bir ikki kun yo‘l yurib, manzilga yetadi, boyning uyini topgach:

– Hoy, kim boor, boy boboo, deb tovush beradi. Oz fursatdan so‘ng ichkaridan bir ayol chiqib, deydi:

– Xo‘jayin bozorga ketgandi, yaqin orada kelib qoladi.

– Men Qamashidan Suyarboynikiga to‘yga chaqirib keldim, o‘zi bo‘lmasa aytib quyarsiz, falon kuni borsin, qarindoshlari, o‘g‘il qizlari barchasi.

Endi meni ushlamang, kelin, hali to‘yga yetib borishim kerak, deb ot ustida turib, shunday deydi:

To‘yga aytib keldim Norpaydi,
Mollarda ko‘rdim chorpoydi.
Meni ko‘p ushlamang bunda,
Ob chiqaybering sarpoydi.

O‘sha vaqtlarda to‘yga aytib kelganlarni “Aytuvchi” deyishgan, ularga xabarga kelishganda “sarpo”, ya’ni to‘n, ko‘ylak yoki bir ikki metr mato berishgan. Boyning xotini ham qo‘li ochiq ayol ekan *(shuning uchun Xudo davlat bergan-da)* yaxshi bir chopon beradi.

Qulli bo‘sin to‘ningiz,
Xursand bo‘ldi iningiz,
O‘g‘il-qizlarni olib,
Erta to‘yga boringiz.

To‘nni kiygan “Aytuvchi” orqaga qaytadi. Yo‘l-yo‘lakay boy bobo bilan boybichani maqtab ketib boryapti.

Qo‘li ochiq, saxiy ekan,
Monov boyning zavjasi.
Shundanmi doim to‘la,
Boy otamning g‘aznasi.

Shunday qilib, aytuvchilikka ketgan Fayzi shoir yo‘lma-yo‘l, qishloqlarni oralab, qo‘shiq aytib yurib, to‘ydan to‘rt kun o‘tib, yetib kelgan ekan.

Afsuski, Fayzi shoirning boy adabiy merosini ushlab qololmadik. Biror-bir yozma manba qolmagan.

“O‘tgan asrning 80-yillarida Qarshi davlat pedagogika institutining o‘qituvchisi Abdumo‘min Qahhorov talabalari bilan folklor-etnografik ekspeditsiyasi paytiga kelib, baxshining merosini magnit lentalariga tushirib olgan edi”, deya eslaydi o‘g‘li Moyli Berdiyev.

Oradan yillar o‘tdi, men surishtirib borsam, domla olamdan o‘tgan ekanlar, qizi Shahnoza bilan bog‘landim, telefondagi suhbatimizda opa otamning uyida bir necha jomadon magnit lentalari bor edi, borib ko‘raman dedi. Keyin ma’lum bo‘lishicha, ko‘p yillar ishlatilmay turgan magnit tasmalari yaroqsiz holga kelib qolgani, ulardan foydalanib bo‘lmasligini aytdi, taassuflar bo‘lsinki, qog‘oz variantlarini ham topolmadik.

Bir necha yillar muqaddam Qashqadaryo baxshichilik maktabiga bag‘ishlangan bir kitobmi yo maqolada – “Qamashidan Fayzi shoir Berdi o‘g‘li” degan ma’lumotni o‘qigandim, e’tiborsizligim sababmi, xotiram pand berdimi, manbani aniq eslolmadim. Shu mavzuda adib va noshir Temirpo‘lat Tillayevga viloyatdagi “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasi raisi Sharofat Ashurovaga ham murojaat qildim, hozircha natija bo‘lmadi, izlanishda davom etamiz. Ming afsuslar bo‘lsinki, biz Fayzi shoir ijodidan bebahra qoldik.

Zamonlar o‘tadi, avlodlar almashadi, ko‘p narsa va voqealar unutiladi. Ammo shoir-baxshilar ijodi, ilhom namunalari abadiy qoladi, asrlar davomida xalqning xotirasida yashaydi. Fayzi shoir ham Qamashi ahli tomonidan iliq xotiralar bilan yodga olinadi. Ammo bedor ko‘nglimda bir umid bor.

Oqqan daryo oqmay qolmas,
O‘zaniga qaytmay qolmas...

Eshto‘xtar ELMURODOV,
“Shuhrat” medali sohibi,
ta’lim faxriysi

Hamkorlik

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR SARI

Bugungi kunda zamonaviy armiyaning salohiyati nafaqat harbiy texnika va qurol-yarog‘, balki ilg‘or texnologiyalar, raqamli yechimlar va yuqori malakali mutaxassislar bilan ham belgilanmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt, robototexnika va kiberxavfsizlik yo‘nalishlari mudofaa tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.



Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hamda Toshkent Kimyo xalqaro universiteti o‘rtasida sun’iy intellekt, robototexnika, raqamli texnologiyalar va kiberxavfsizlik sohalarida hamkorlik memorandumi imzolandi.

Uchrashuvda zamonaviy texnologiyalarni mudofaa sohasiga joriy etish, ilmiy tadqiqot va innovatsion loyihalarni amalga oshirish, shuningdek yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash masalalari muhokama qilindi. Tomonlar sun’iy intellekt, “Machine Learning”, “Deep Learning”, “Computer Vision” va “Natural Language Processing” kabi ilg‘or texnologiyalar bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirish yuzasidan fikr almashdi.

Muzokaralar yakunida mudofaa vazirining raqamlashtirish, sun’iy intellekt va kiberxavfsizlik bo‘yicha o‘rinbosari polkovnik Bahrom Urmanov hamda Toshkent Kimyo xalqaro universiteti rektori professor Akmal Allakulliyev hamkorlik memorandumini imzoladi.

Memorandum imzolangach, Mudofaa vazirligi vakillari universitetning zamonaviy laboratoriyalarini ko‘zdan kechirdi. Tashrif davomida talabalar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion loyihalar va texnologik ishlanmalar namoyish etildi.

Mehmonlar yoshlarning sun’iy intellekt, robototexnika va raqamli texnologiyalar sohasida olib borayotgan izlanishlari, amaliy loyihalari hamda ularning imkoniyatlari bilan yaqindan tanishdi. Laboratoriyadagi ishlanmalar talabalarning zamonaviy texnologiyalarga bo‘lgan qiziqishi, ijodiy yondashuvi va innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish salohiyatini namoyon etdi.

Tashrif davomida texnologiyalarning amaliy ahamiyati, ularni turli sohalarda, jumladan mudofaa tizimida qo‘llash imkoniyatlari yuzasidan ham fikr almashdi.

Mazkur hamkorlikning muhim yo‘nalishlaridan biri zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega kadrlar tayyorlashdir. Hamkorlik doirasida harbiy xizmatchilar va Mudofaa vazirligi xodimlari uchun zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha o‘quv kurslari, malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini tashkil etish ko‘zda tutilgan. Qolaversa, amaliyot o‘tash imkoniyatlari yaratiladi. Bu esa yosh mutaxassislarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirishi, ilmiy izlanishlarini yanada rivojlantirishi uchun muhim zamin yaratadi.

Bu kabi hamkorliklar mamlakat mudofaa salohiyatini zamonaviy texnologiyalar asosida yanada yuksaltirish, raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish va soha uchun raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Sherzod SHARIPOV,
“Vatanparvar”

Axborot xurujlari

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan XXI asrda urush tushunchasi faqat jang maydoni bilan cheklanmay qoldi. Bugun axborot makoni ham raqobat va qarama-qarshilik maydoniga aylandi. Turli yolg‘on xabarlar, manipulyativ materiallar, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan dezinformatsiya inson ongiga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan. Shu bois harbiy xizmatchining mafkuraviy va psixologik immuniteti milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

MAFKURAVIY VA PSIXOLOGIK IMMUNITET



Mutaxassislar ta’kidlashicha, zamonaviy mojarolarda axborot operatsiyalari ko‘pincha qurolli harakatlardan oldin boshlanadi. Ularning maqsadi jamiyat ishonchini susaytirish, qo‘rquv uyg‘otish va qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir etishdan iborat. Harbiy xizmatchi bunday vaziyatlarda hissiyot emas, ishonchli manba va tahliliy fikrlashga tayanishi zarur.

Psixologik immunitet – bu shaxsning bosim, provokatsiya va ruhiy zo‘riqishlarga bardosh bera olish qobiliyati. Mafkuraviy immunitet esa milliy qadriyatlar, Vatanga sadoqat, huquqiy ong va tanqidiy fikrlash asosida shakllanadi. Ushbu ikki omil uyg‘unlashganda harbiy xizmatchi har qanday axborot xurujiga nisbatan ancha barqaror bo‘ladi.

Qiziqarli fakt shundaki, ko‘plab xalqaro tadqiqotlarda dezinformatsiya insonning kuchli hissiyotlari – qo‘rquv, g‘azab yoki shoshqaloqlikdan foydalanishi qayd etilgan. Shu sababli yolg‘on xabarlar ko‘pincha tekshirilmasdan ulashiladi. Harbiy muhitda esa bitta asossiz xabar ham jamoa ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Harbiy jamoada ochiq muloqot, muntazam ma’naviy-ma’rifiy mashg‘ulotlar, mediasavodxonlikni oshirish, psixologik treninglar va jamoaviy birdamlikni mustahkamlash axborot tahdidlariga qarshi eng samarali vositalardan biridir. Harbiy rahbarning shaxsiy namunasi, adolatli munosabati va ishonchli axborot berishi jamoaning ruhiy barqarorligini oshiradi.

Bugungi kunda mediasavodxonlik harbiy-kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismiga aylanmoqda. Axborot manbasini tekshirish, rasmiy manbalarga tayanish, shubhali xabarlarni tarqatmaslik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari harbiy xizmatchining kundalik faoliyatida muhim o‘rin tutadi.

Harbiy xizmatchining kuchi nafaqat jismoniy tayyorgarligi va qurolni puxta egallaganida, balki uning mustahkam dunyoqarashi, ruhiy barqarorligi va Vatanga sadoqatida ham namoyon bo‘ladi. Axborot xurujlari kuchayib borayotgan bugungi davrda mafkuraviy va psixologik immunitetni mustahkamlash har bir harbiy jamoaning ustuvor vazifasi bo‘lib qolmoqda.

Zero ongni himoya qilish ham Vatan himoyasining ajralmas qismidir.

Mayor O. JO‘RAYEV

Ijtimoiy himoya



DAVLAT VA JAMIYAT ISHONCHINING HUQUQIY IFODASI

Davlatning qudrati faqat zamonaviy qurol-yarog‘ yoki harbiy texnika bilan emas, balki uni himoya qilayotgan insonlarga bo‘lgan munosabati bilan ham baholanadi. Vatan osoyishtaligi uchun xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi o‘z burchini vijdonan bajarishi uchun o‘zini va oilasini davlat himoyasida his qilishi lozim. Shu ma’noda, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi – imtiyoz emas, balki davlatning huquqiy va ma’naviy mas’uliyati.

Harbiy xizmat boshqa kasblardan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Harbiy xizmatchi zarur hollarda shaxsiy manfaatlarini emas, davlat va xalq manfaatlarini ustun qo‘yadi. U bayram kunlari ham, tungi vaqtlarda ham, tabiiy ofat yoki favqulodda vaziyatlarda ham xizmat burchini ado etadi. Ayrim hollarda esa o‘z hayoti va sog‘lig‘ini xavf ostiga qo‘yadi.

Shunday ekan, davlat tomonidan harbiy xizmatchilar uchun belgilangan ijtimoiy kafolatlar mehr-muruvvat emas, balki ushbu mas’uliyatli xizmatning huquqiy muqobilidir.

Ijtimoiy himoya tushunchasi faqat moddiy ta’minot bilan cheklanmaydi. U munosib mehnat sharoitlari, sifatli tibbiy xizmat, uy-joy bilan ta’minlash, dam olish huquqi, pensiya ta’minoti, ta’lim olish imkoniyatlari, xizmat vazifasini bajarish vaqtida jabrlangan harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini qo‘llab-quvvatlash kabi ko‘plab kafolatlarni o‘z ichiga oladi.

Bu kafolatlar harbiy xizmatchining huquqiy maqomini mustahkamlaydi, xizmatga bo‘lgan ishonchini oshiradi va o‘z vazifasini yuksak mas’uliyat bilan bajarishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Huquqiy davlatda har qanday kafolatning amaliy qiymati uning qonunlarda belgilanishi bilan emas, balki hayotda qay darajada ta’minlanayotgani bilan o‘lchanadi. Shu bois harbiy xizmatchilarning ijtimoiy huquqlarini himoya qilishda huquqiy madaniyat va qonunlarga og‘ishmay amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Harbiy xizmatchi o‘z huquqlarini yaxshi bilsa, ulardan qonun doirasida foydalana oladi. Komandirlar va mas’ul mansabdor shaxslar esa ushbu huquqlarni ta’minlashni xizmat intizomining ajralmas qismi sifatida qabul qilishi lozim. Zero qonunga tayangan munosabat ishonchni, ishonch esa kuchli harbiy jamoani shakllantiradi.

Bugun mamlakatimizda harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini yanada takomillashtirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar harbiy xizmatning nufuzini oshirish, yoshlarni Vatan himoyasiga sadoqat ruhida tarbiyalash va Qurolli Kuchlarning salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ijtimoiy himoyani doimiy ravishda takomillashtirish davr talabi bo‘lib qolmoqda. Chunki harbiy xizmatning mazmuni o‘zgarib, yangi xavf-xatarlar paydo bo‘lar ekan, harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ham zamon bilan hamnafas bo‘lishi zarur.

Harbiy xizmatchi davlat xavfsizligini himoya qilar ekan, davlat ham uning huquqlari, qadr-qimmati va oilasi farovonligini ishonchli himoya qilishi shart. Ana shundagina “Inson qadri uchun” degan ezgu tamoyil harbiy sohada ham o‘zining haqiqiy mazmunini topadi.

Vatan himoyasiga bel bog‘lagan inson hech qachon yolg‘iz emasligini his qilishi kerak. Uning ortida davlatning qonuniy kafolatlari, jamiyatning hurmati va xalqning ishonchi turgandagina harbiy xizmatning ma’naviy kuchi yanada yuksaladi.

Zilola NUROVA,
Mudofaa vazirligi
Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar
departamenti yuristi

Armiya sporti

Iqtidorlar KASHF ETILGAN TURNIR





Chirchiq garnizonidagi harbiy qism sport majmuasida sportning qo‘ljangi turi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri kubogi uchun musobaqasi bo‘lib o‘tdi. Uch kun davom etgan murosasiz bahslarda 8 ta vazn hamda jamoalar o‘rtasida g‘olib va sovrindorlar nomi aniqlandi.

Unda 11 ta harbiy jamoa va 150 nafarga yaqin qo‘ljangi ustasi ishtirok etdi. Musobaqa O‘zbekiston chempionati va kuch tuzilmalari birinchiligi uchun saralash bosqichi tizimida tashkillashtirilgani bois sovrinli o‘rinlar uchun bahslar shiddatli kurashlarga boy bo‘ldi. Chempionatda faol ishtirok etgan va sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan sportchilar orasida muddatli harbiy xizmatchilarning borligi muhim ahamiyat kasb etdi.

Jumladan, 57 va 67 kg vazn toifasida Sharqiy harbiy okrug sharafini himoya qilgan Doston Abdurasulov *(1-o‘rin)*, Mahmudxo‘ja Tursunov *(1-o‘rin)*, Bunyod Abdumannopov *(3-o‘rin)* ishtirok etgan janglar tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi. Shuningdek, Behruz Salimov, Asadbek Rustamov, Jamshid Ortiqboyev, Valijon Qamarov, Avaz Egamberdiyev, Husanboy Abdullayev, Isomiddin Ortiqboyev, Sarvarbek Hasanov, Alpomish Ne’matullayev hamda Azizbek Mahammadjonov kabi yoshlarning o‘tkazgan janglari professional sportchilarni ham og‘ir vaziyatda qoldirdi.

– Musobaqada ketma-ket to‘rtinchi g‘oliblikni qo‘lga kiritdim, – deydi oddiy askar Mahmudxo‘ja Tursunov. – Umumiy hisobda oltin medalim soni 5 taga yetdi. Sovrinlarim jamg‘armasida bitta bronza medal ham bor. Bugungi final bahsidagi raqibim – Javlonbek To‘xtasinovdan bu qadar shiddatli qarshilik kutmagandim. U butun uchrashuv davomida tezroq hisobdagi farqni tenglashtirishga harakat qildi. Harakatlaridagi shoshqaloqligi menga qo‘l keldi va Javlonbekni 2 ochko farqi bilan mag‘lubiyatga uchratdim. Har safar tatamiga chiqar ekanman, kuch, mohirona hujum, o‘z vaqtida himoyalanishdan tashqari, ustozlarim o‘rgatganday raqibga nisbatan diqqat-e’tiborni unutmayman. Javlonbekning yo‘l qo‘ygan xatolaridan foydalanib, qo‘ljangi musobaqalaridagi eng qiyin kechgan g‘alabamni qo‘lga kiritdim.

Shunisi e’tiborliki, oddiy askar Mahmudxo‘ja Tursunov barcha bellashuvlarda bir xil – 15 ochko to‘plashga muvaffaq bo‘ldi. Bu uning o‘zi ta’kidlaganidek, sportchining diqqat-e’tiborini uchrashuv vaqti davomida teng taqsimlay olishidan dalolat beradi. Mahmudxo‘janing O‘zbekiston chempionati va xalqaro musobaqalardagi natijalari ham ancha salmoqli. Taekvondo bo‘yicha Turkiyada bo‘lib o‘tgan harbiylar o‘rtasidagi jahon chempionatida bronza medalni qo‘lga kiritgan. Ikki karra mamlakat chempioni degan sharafli unvonga erishgan va bir necha marotaba sovrindorlar qatoridan joy olgan.

– Hal qiluvchi final bahsida g‘alaba qozonishimni kutmagandim, – deydi oddiy askar Doston Abdurasulov. – Chunki bir yil avval sparring jangida Alijon Qosimovga yutqazganman. Buning ustiga raqibim menga nisbatan ancha tajribali ekanini ta’kidlagan bo‘lardim. Uchrashuv natijasi ham buning yaqqol misolidir. Ochkolar bo‘yicha 22:17 hisobida ustunlikka erishdim. Yoshligimdan dzyudo, boksda o‘rgangan usullarim ancha qo‘l keldi. Final uchrashuvida raqibimning tajribali ekanini e’tiborga olib, himoyadan hujumga uslubida harakat qildim. Uning hujumdagi bitta zarbasiga ikkita, uchta zarba bilan javob qaytarishga erishdim. Buning natijasida butun uchrashuv davomida hisobda oldinda borishim ta’minlandi. Yutug‘im yurtimiz mustaqilligining 35 yilligiga, qolaversa oilam uchun munosib sovg‘a bo‘ldi...

Doston oilada yolg‘iz farzand bo‘lishiga qaramay, arzanda o‘g‘il emas. 7-8 yoshidan buyon dzyudo, boks, qo‘ljangi kabi sportning yakkama-yakka kurash turlari bilan shug‘ullanib keladi. Otasi Abduhamid Nishonov ham sport, unda erishiladigan yutuqlar orqali farzandining Vatan himoyachisi bo‘lish istagini qo‘llab-quvvatladi. Buning uchun o‘g‘liga Qo‘qondagi dzyudo, boks, qo‘ljangi to‘garaklariga qatnash sharoitini yaratib berdi. Doston ilk katta yutug‘iga ham armiyada erishdi. Muddatli harbiy xizmatini o‘tash davrida mudofaa vaziri kubogi uchun musobaqasi sovrindoriga aylandi. Oradan o‘tgan qisqa vaqt ichida bu sovrinli o‘rinlarning soni to‘rttaga yetdi. Ularning ikkitasi g‘oliblik! Hali bu u erishgan yutuqlarning debochasi. Kelajakda Doston o‘z ismi-jismiga mos ravishda O‘zbekiston armiyasini, Mudofaa vazirligini dunyoga doston qilishni niyat qilgan. Uning harakatlaridagi mukammallikni kuzatib, bu vazifani uddalashiga ishonch hosil qildik. Umuman olganda, musobaqa yana bir marta Mahmudxo‘ja, Doston, Bunyod kabi iqtidor egalarini kashf etdi. Bu an’ana kelgusida, albatta, muntazam davomiyligini saqlab qoladi.

Musobaqaning yakuniy natijalariga ko‘ra, 9 ta sovrinli o‘rinni qo‘lga kiritgan Mudofaa vazirligi qo‘mondonligi umumiy jamoa hisobida shohsupaning eng yuqori pog‘onasidan joy oldi. Ikkinchi o‘rin Toshkent harbiy okrugi jamoasiga nasib etgan bo‘lsa, sovrindorlar uchligini Sharqiy harbiy okrug yakunlab berdi. G‘olib va sovrindorlarga kubok, medal va esdalik sovg‘alar tantanali ravishda topshirildi.

57 kg. 1-o‘rin oddiy askar Doston Abdurasulov *(SHHO)*;

2-o‘rin kichik serjant Alijon Qosimov *(MOQ)*;

3-o‘rin oddiy askar Behruz Salimov *(SHHO)*, kichik serjant Abdusalom Choriyev *(HHMQ va HHK)*.

62 kg. 1-o‘rin III darajali serjant Asilbek Abdullayev *(MOQ)*;

2-o‘rin oddiy askar Asadbek Rustamov *(MHO)*;

3-o‘rin oddiy askar Jamshid Ortiqboyev *(THO)*, oddiy askar Valijon Qamarov (SHHO).

67 kg. 1-o‘rin oddiy askar Mahmudxo‘ja Tursunov *(MHO)*;

2-o‘rin kichik serjant Javlonbek To‘xtasinov *(THO)*;

3-o‘rin oddiy askar Bunyod Abdumannopov *(SHHO)*, kichik serjant Bahrom Olimjonov *(SHHO)*.

73 kg. 1-o‘rin III darajali serjant Yodgorbek Jabborov *(MOQ)*;

2-o‘rin III darajali serjant Shaxzod Hakimov *(MOQ)*;

3-o‘rin leytenant Javohir Qahhorov *(SHG‘HO)*, oddiy askar Avaz Egamberdiyev *(SHHO)*.

80 kg. 1-o‘rin kichik serjant Ramziddin Omonov *(MHO)*;

2-o‘rin oddiy askar Husanboy Abdullayev *(THO)*;

3-o‘rin oddiy askar Isomiddin Ortiqboyev *(JG‘MHO)*, III darajali serjant Husniddin Mamajonov *(MOQ)*.

88 kg. 1-o‘rin Kichik serjant Amirbek Ismoilov *(THO)*;

2-o‘rin oddiy askar Sarvarbek Hasanov *(THO)*;

3-o‘rin III darajali serjant Elyorjon Yulchiyev *(MOQ)*, III darajali serjant Asrorbek Akramov *(MOQ)*.

97 kg. 1-o‘rin III darajali serjant Sherali Muhammadaminov *(THO)*;

2-o‘rin III darajali serjant Samandar Sidiyorov *(MOQ)*;

3-o‘rin oddiy askar Alpomish Ne’matullayev *(JG‘MHO)*, III darajali serjant Doniyor Toshmatov *(SHHO)*.

+97 kg. 1-o‘rin oddiy askar Sarvar Sobirov *(JG‘MHO)*;

2-o‘rin III darajali serjant O‘tkirbek Karimov *(MOQ)*;

3-o‘rin oddiy askar Azizbek Mahammadjonov *(MHO)*, kichik serjant Lutfulla Omonov *(THO)*.





Asror RO‘ZIBOYEV,
“Vatanparvar”

E'tirof





147

nafar bitiruvchining barchasi talaba bo‘ldi

Maqsad, harakat va natija – Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litsey bitiruvchilarining 2025/2026-o‘quv yilidagi yutug‘i ana shu uch tamoyilning yorqin ifodasi.

Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litsey 2025/2026-o‘quv yili yakunlarida yuksak e’tibor va mashaqqatli mehnatning munosib samarasini namoyon etdi. Litseyning 147 nafar bitiruvchisining barchasi – 100 foiz natija bilan oliy ta’lim muassasalari talabasi bo‘ldi. Bu ko‘rsatkich, avvalo, yoshlarning bilim olishga bo‘lgan intilishi, ustozlarning fidokorona mehnati, ota-onalarning qo‘llab-quvvatlashi hamda litseyda yaratilgan ta’lim-tarbiya muhitining amaliy natijasidir.

Bitiruvchilarning 144 nafari davlat granti, 3 nafari esa to‘lov-kontrakt asosida oliy ta’lim muassasalariga qabul qilindi. Yoshlarning 105 nafari oliy harbiy ta’lim muassasalarida, 42 nafari esa boshqa oliy o‘quv yurtlarida tahsil olish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Bu raqamlar ortida katta mehnat, qat’iyat va aniq maqsad mujassam. Ayniqsa, bitiruvchilarning aksariyati oliy harbiy ta’lim muassasalarini tanlagani litseyda olib borilayotgan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini ko‘rsatadi. Bu maskanda yoshlar fanlarni chuqur o‘zlashtirish bilan birga Vatanga muhabbat, xalq va davlat manfaatlariga sadoqat, intizom, jasorat va mas’uliyat kabi fazilatlarni ham o‘zida shakllantiradi.

Mustaqillikning eng katta boyligi – bilimli, salohiyatli, Vatan taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashaydigan yosh avlod. Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litsey bitiruvchilarining 100 foizlik natijasi ham ana shu ezgu maqsadlar yo‘lidagi amaliy qadam – mustaqillikning 35 yilligiga munosib tuhfa bo‘ldi.

Salomat AVAZMURATOVA,
Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyi o‘quv bo‘limi boshlig‘i

Fikr

YURAGIMIZDAGI ISHONCHLI QALQON

Har kuni telefonimiz ekranidan oqib o‘tayotgan minglab xabarlar, videolar, so‘nggi yangiliklar orasida qay biri haqiqat, qay biri esa ataylab o‘ylab topilgan yolg‘on ekanini ajratish osonmi? Achinarlisi shundaki, bu savol endi faqat mutaxassislarga emas, balki har birimizga, ayniqsa telefon va noutbuk bilan katta bo‘layotgan farzandlarimizga tegishli.



Sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi

Zamonaviy dunyoda urush faqat chegarada, qurol bilan bo‘lmaydi. Bugun eng xavfli “Jang maydoni” – bu ekranlarimiz ichida, ya’ni axborot maydonida joylashgan. Bu jangda o‘q-dorilar o‘rnini soxta xabarlar, tarixni buzib ko‘rsatuvchi tahlillar, milliy qadriyatlarimizni kamsituvchi mazmundagi kontentlar egallagan. Inchinun, bu jangning asosiy nishoni – aynan bizning yoshlarimiz, chunki ular hayotining eng ko‘p qismini xuddi shu raqamli maydonda o‘tkazmoqda.

Xo‘sh, bunday sharoitda o‘zimizni va farzandlarimizni qanday himoya qilishimiz mumkin? Javob aslida oddiy, ammo chuqur: eng ishonchli qalqon – bu inson yuragidagi haqiqiy, ongli vatanparvarlik tuyg‘usi. Ajdodlarimiz bosib o‘tgan mashaqqatli yo‘lni, ular ko‘rsatgan jasorat va matonatni chin dildan bilgan, o‘z tilini, tarixini, madaniyatini yurak-yurakdan qadrlaydigan inson – hech qanday yolg‘on xabar yoki begona g‘oyaga oson taslim bo‘lmaydi. Chunki uning ichida allaqachon mustahkam bir tayanch – o‘zligini anglash tuyg‘usi shakllangan bo‘ladi.

Ba’zan shunday deyishadi: “Vatanparvarlik – bu bayramlarda aytiladigan chiroyli so‘zlar”, yo‘q, aslida vatanparvarlik – bu har kuni, kichik ishlarda namoyon bo‘ladigan tuyg‘u: ona tilida to‘g‘ri va go‘zal so‘zlashda, ko‘chada chiqindini yerga tashlamaslikda, qo‘shnisiga yordam qo‘lini cho‘zishda, o‘z kasbini vijdonan bajarishda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda biror narsani “ulashish” *(repost qilish)*dan oldin, uning rost yoki yolg‘onligini bir bor o‘ylab ko‘rishda ham namoyon bo‘ladi.

Bugungi yoshlarimizga aytadigan gapimiz shu: sizlar bu kurashda shunchaki tomoshabin emassiz. Har biri sizning to‘g‘ri, mas’uliyatli qadamingiz – ijtimoiy tarmoqda qoldirgan izchil va oqilona fikringiz, do‘stlaringizga tarixiy haqiqatni yetkazishingiz, o‘z Vataningiz haqida faxr bilan gapirishingiz – bu ham xuddi jang maydonidagi jasoratdek qadrli. Zamonaviy vatanparvarlik bu ayni damda, ayni shu kurashda faol ishtirok etishdir.

Oila, maktab, mahalla – barchamiz birgalikda, har bir yosh yurakda mana shu ichki qalqonni, ya’ni chinakam va ongli vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlashimiz lozim. Chunki qanchalik ko‘p yuraklarda bu tuyg‘u mustahkam bo‘lsa, xalqimiz shunchalik bardoshli, kelajagimiz shunchalik ishonchli bo‘ladi.

Nodirbek RO‘ZIYEV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Harbiy aviatsiya instituti katta o‘qituvchisi

Ortga qaytmas islohotlar

SAMARQANDLIK YOSHLAR BILAN UCHRASHUV

Samarqand viloyatida O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov 200ga yaqin ishtixonlik yoshlar bilan ochiq muloqot o‘tkazdi.



96-umumta’lim maktabida tashkil etilgan tadbirda H. Botirov yig‘ilganlarga “Vatanparvar” tashkilotining aholini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb mutaxassislarini tayyorlashga doir faoliyati to‘g‘risida ma’lumot berdi.

“Vatanparvar” tashkiloti davlatimiz mustaqilligining tengdoshi hisoblanadi. Bundan 35 yil avval istiqlolning ilk kunlarida tashkilot o‘z faoliyatini boshlagan edi. Uzoqqa bormaylik, mana sizlar yashab turgan Samarqand viloyatida shu paytga qadar tashkilotimiz Vatan tinchligi, ravnaqi va shuhratini birinchi galdagi vazifasi deb bilgan minglab vatanparvarlarni, sportchilarni va turli malakali mutaxassislarni yetishtirdi. Ishontirib aytamanki, tashkilotimiz bu yo‘ldagi sa’y-harakatlarini aslo susaytirmaydi, aksincha muntazam kuchaytirib boradi”, dedi u o‘z nutqida.

Ochiq muloqot qizg‘in savol-javoblar bilan o‘tdi. E’tiborlisi, tadbirda ishtirok etgan bir qator ishtirokchilar tashkilotning o‘quv muassasalarida kasb-hunar egallash va sport bilan shug‘ullanish istagini bildirdi. “Avtokross”, “Motokross”, “Karting”, “Duatlon”, “Pnevmatik quroldan o‘q otish”, “Aviamodel”, “Raketamodel” va “Kemamodel” sport seksiyalarining ko‘rgazmalari tashrif buyuruvchilarda unutilmas taassurot qoldirdi.

Shu kuni davlatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan Ishtixon tumani o‘quv sport-texnika markazining yangi zamonaviy o‘quv avtodromi ham foydalanishga topshirildi.

Tantanali ochilish marosimida “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi rahbariyati, viloyat va tuman mutasaddilari hamda keng jamoatchilik vak illari ishtirok etdi. Tadbirda viloyat kengashi tasarrufidagi o‘quv muassasalariga yangi xarid qilingan 26 ta “Onix”, 10 ta “KIA Sonet” va 4 ta “FOTON” rusumidagi yengil va yuk avtomobili topshirildi. Endilikda ushbu o‘quv avtomobillaridan avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarida “B”, “BC” va “C” toifalari bo‘yicha o‘qiyotgan fuqarolar amaliy mashg‘ulotlarda foydalanadi.

O‘zbekiston chempionati

MEZBONLAR G‘ALABA QOZONDI



Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumanida O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tomonidan sportning karting turi bo‘yicha O‘zbekiston chempionatining ikkinchi bosqich musobaqasi o‘tkazildi.

Respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan 70 ga yaqin sportchi belgilangan turli masofalarda “Mikro”, “Mini”, “Super mini”, “OK junior”, “T4 junior”, “OK-junior”, “KF”, “KZ2” va “T4-Patriot” sinflarida sport kartida bellashdi.

Qizg‘in va murosasiz kechgan musobaqa quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

“Mikro” sinfida:

1-o‘rin: Muhammadamin Azizov *(Toshkent sh.)*;
2-o‘rin: Salax Urunov *(Toshkent sh.)*.

“Mini” sinfida:

1-o‘rin: Kirill Konyuxov *(Toshkent sh.)*;
2-o‘rin: Azizmurod Muhammadjonov *(Namangan v.)*;
3-o‘rin: Jasmina Tohirova *(Qashqadaryo v.)*.

“Super mini” sinfida:

1-o‘rin: Matvey Mochalkin *(Sirdaryo v.)*;
2-o‘rin: Nurmuhammad Isroilov *(Namangan v.)*;
3-o‘rin: Anatoliy Korobkov *(Toshkent v.)*.

“T4-junior” sinfida:

1-o‘rin: Jobir Rahmatullayev *(Namangan v.)*;
2-o‘rin: Aleksandr Silchenko *(Surxondaryo v.)*;
3-o‘rin: Shohjahon Komilov *(Namangan v.)*.

“OK junior” sinfida:

1-o‘rin: Daniil Shevsov *(Toshkent sh.)*;
2-o‘rin: Shohjahon Komilov *(Namangan v.)*;
3-o‘rin: Vladimir Telegin *(Toshkent v.)*.

“KF” sinfida:

1-o‘rin: Artyom Usheka *(Toshkent v.)*;
2-o‘rin: Alisher Qutbiddinov *(Namangan v.)*;
3-o‘rin: Daniil Alimov *(Toshkent sh.)*.

“KZ2” sinfida:

1-o‘rin: Amir Hamrayev *(Toshkent sh.)*;
2-o‘rin: Farrux Muratov *(Toshkent sh.)*;
3-o‘rin: Igor Fyodorov *(Toshkent sh.)*.

“T4-Patriot” sinfida:

1-o‘rin: Yasmina Egamberdiyeva *(Namangan v.)*;
2-o‘rin: Daniil Alimov *(Toshkent sh.)*;
3-o‘rin: Alisher Qutbiddinov *(Namangan v.)*.

Umumjamoa hisobida:

1-o‘rin: Namangan viloyati;
2-o‘rin: Toshkent shahri;
3-o‘rin: Sirdaryo viloyati jamoalari.

Musobaqaning yopilish marosimida g‘oliblik va yuqori natijalarni qo‘lga kiritgan sportchilar “Vatanparvar” tashkilotining diplom, medal va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti matbuot xizmati

Jarayon

TADBIRLAR DAVOM ETMOQDA

Toshkent harbiy prokuraturasi tomonidan harbiy qism va muassasalarda davlatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida qator uchrashuv, muloqot va boshqa tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda.

Shu kabi tadbirlarning navbatdagisi harbiy qismlarning birida shaxsiy tarkib ishtirokida o‘tkazildi.

Muloqotda mamlakatimizda amalga oshirilgan va jadal davom etayotgan, shu jumladan Qurolli Kuchlarimizdagi keng qamrovli islohotlar, shuningdek harbiy xizmatchilar va ularning turmush o‘rtoqlari hamda farzandlari uchun joriy etilgan imtiyoz va imkoniyatlar haqida so‘z bordi.

Tadbir davomida Milliy gvardiya Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmasida ommaviy sayyor qabul tashkil etdi. Unda qator mutaxassislar jalb etilgan holda harbiy xizmatchilar, xodimlar va ularning oila a’zolari tinglanib, murojaatlarni joyida hal etish choralari ko‘rildi.

Jarayonda mehnat yarmarkasi ham tashkil etilib, harbiy xizmatchilarning ish bilan band bo‘lmagan oila a’zolariga ularning mutaxassisligiga mos bo‘sh ish o‘rinlari taklif etildi.


Ushbu tadbirda kitoblar ko‘rgazmasi ham o‘tkazilib, tashrif buyurganlarga o‘zbek va jahon adabiyoti durdonalari hisoblangan qator asarlar tavsiya etildi.

Adliya podpolkovnigi
Alisher QURBONOV,
Toshkent harbiy prokurorining
yordamchisi

"Vatanparvar" tashkilotlarida

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

Mukammal KO'NIKMALAR *berilmoqda*



Yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ularga zamonaviy bilim berish va jamiyat uchun kerakli mutaxassis bo'lib yetishiga ko'maklashish O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining ustuvor vazifalaridan biridir.







Jumladan, malakali kasb egasi bo'lgan ma'nan yetuk yoshlarni tarbiyalash borasida tashkilotning Surxondaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Boysun tumani o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasi jamoasi ham bu borada bir qator ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Bugungi kunda tashkilotimiz xalq xo'jaligiga malakali mutaxassislar yetkazib berishning ilg'or texnologiyalari asosida ishlash tajribasiga ega bo'ldi. Shu kunlarda "B", "BC", "CE" toifali haydovchilar tayyorlanayotgan markazda bo'lajak haydovchilar avtotransport vositalarining tuzilishi va ulardan foydalanish ko'nikmalarini puxta egallab olishlari uchun zamonaviy o'quv xonalari mavjud.



Ayni paytda Elmurod G'afforov, Jalol Ruhiddinov, Ilhom Razzoqov, Davron Ruhiddinov, Shuhrat Normurodov, Rahmatilla Qodirov, Umidilla Qurbonov, Shuhrat Bo'riyev singari o'qituvchi va amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-ustalar berayotgan saboqlar dasturda belgilangan talab darajasida bo'layotgani bois bo'lajak haydovchilar mukammal bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmoqda.

Bundan tashqari, tashkilotda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu kunlarda markazda "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon" kabi seksiyalar faoliyat ko'rsatmoqda. To'garak a'zolari ishtirokida bir qancha bayram va muhim sanalarga bag'ishlangan sport musobaqalari o'tkazildi. Xususan, tuman hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan targ'ibot tadbirlari shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag'ishlab "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" shiori ostida o'tkazilgan bunday tadbirlar yoshlarning qalbida ona Vatanga sadoqat hissini, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishga, ona Vatanga sadoqatli insonlar bo'lib yetishishlariga ham xizmat qilmoqda.

Shohista QURBONOVA,
"Vatanparvar" tashkiloti
Boysun tumani O'STM
NTM direktori



Mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotlarida





TIZIMLI ISHLAR — *samarali natija*





Keyingi yillarda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish hamda ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida Qashqadaryo viloyatida ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, harbiy-vatanparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etish, ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining viloyat kengashi tasarrufidagi Chiroqchi tumani o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasi jamoasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar shular jumlasidandir.

Ayni kunlarda markaz jamoasi tuman hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari, Yoshlar ishlari agentligi, ma’naviyat va ma’rifat markazining tuman bo‘limlari bilan hamkorlikda harbiy-vatanparvarlik targ‘ibotini samarali olib bormoqda. Demak, yoshlarni har tomonlama yetuk va barkamol qilib voyaga yetkazish borasida salmoqli natijalarga erishmoqda.

Albatta, bu borada turli muhim sanalarni ko‘tarinki ruhda o‘tkazishga bag‘ishlangan tadbir rejasi dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida turli ma’naviy va sport tadbirlari o‘tkazilayotgani bu yo‘nalishdagi ishlarimizning sirasidandir.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, markazda yoshlar sportning texnik va amaliy turlari bilan shug‘ullanishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Ayni paytda tashkilotda faoliyat ko‘rsatayotgan “Havo miltig‘idan o‘q otish”, “Karting”, “Duatlon” kabi seksiya va to‘garaklarda 30 nafarga yaqin yosh muntazam shug‘ullanmoqda. O‘z navbatida, markaz a’zolari nufuzli musobaqalarda muvaffaqiyat qozonib kelmoqda.

Bugungi kunga kelib, markaz jamoasining sa’y-harakati bilan tashkilot moddiy-texnik bazasi yaxshilandi. Haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlashda bir qancha yutuqlarga erishdi. Zamon talablari asosida o‘quv binosidagi sinfxonalar ta’mirlanib, qayta jihozlandi. Amaliy mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish va tinglovchilarga qulaylik yaratish maqsadida bir nechta zamonaviy rusumdagi “Onix”, “KIA” o‘quv avtomobillari va mototsikl xarid qilindi. Buning natijasida ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash, haydovchilar malakasini oshirish borasida yaxshi samaradorlikka erishyapti.

Shu kunlarda markazda “A”, “B”, “BC”, “BE”, “CE” hamda “D” toifali haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari faoliyat yuritmoqda.

Muhimi tashkilotda yoshlarning kasb-hunarlarni puxta egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratilib, bu boradagi ishlar izchil davom etmoqda.

Lazizjon RAJABOV,
“Vatanparvar” tashkiloti Chiroqchi tumani O‘STM NTM direktori

“Vatanparvar” tashkiloti Chiroqchi tumani o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasi jamoasi barcha vatandoshlarimizni mamlakatimiz Mustaqilligining 35 yillik ayyomi bilan samimiy tabriklaydi.

Barchangizga tinchlik-omonlik, baxt-u saodat, xonadoningizga fayz-u baraka tilaymiz!



REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

Mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotlarida

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA




TINGLOVCHILAR *uchun qulaylik*

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga munosib hissa qo‘shib kelayotgan O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Surxondaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Jarqo‘rg‘on tumani o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasi jamoasi ham amaldagi qonunchilik hamda tasdiqlangan nizom asosida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirib kelmoqda.







Ayni paytda ko‘plab boshlang‘ich tashkilot va a’zolarni o‘zida birlashtirib, faoliyat olib borayotgan tashkilotda yoshlarga biror-bir kasb-hunar o‘rgatish, ularning ma’naviy barkamol, yetuk mutaxassis bo‘lishlari ta’minlanyapti.

Ayniqsa, bu ishlar ko‘lami mamlakatimiz davlat mustaqilligining 35 yilligi oldidan yanada katta ahamiyat kasb etmoqda. Muhim sana munosabati bilan o‘quv sport-texnika markazi xodimlari “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida mahallalarda, o‘quv muassasalarida, maktabgacha ta’lim va ko‘plab jamoat tashkilotlarida harbiy-vatanparvarlik targ‘ibotini faol olib bormoqda. Shuningdek, markaz xodimlarining sa’y-harakatlari bilan harbiy qismlarga yoshlarning tashriflari uyushtirilmoqda.

– Harbiy xizmatchilar hayotidan hikoya qiluvchi lavhalar yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishga, ona Vatanga sadoqatli hamda fidoyi insonlar bo‘lib yetishishiga keng imkoniyatlar yaratmoqda, – deydi markaz direktori Shuhrat Xo‘jamqulov. – Shu bois tuman hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari, harbiy qismlar, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa ko‘plab tashkilotlar bilan hamkorlikda harbiy xizmatga chaqirish, kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar belgilangan reja asosida o‘tkazilmoqda.



Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, tashkilotda so‘nggi yillarda yoshlar orasida sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. “Havo miltig‘idan o‘q otish”, “Yozgi biatlon” hamda “Aviamodel” kabi sport seksiyalarida o‘ttiz nafardan ortiq iqtidorli yosh muntazam ravishda shug‘ullanmoqda. O‘z navbatida, markaz a’zolari ushbu sport turlari bo‘yicha yaxshi natijalarni egallab kelmoqda.

Bundan tashqari, joriy yilning o‘tgan oylari mobaynida tashkilotda haydovchilar tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish borasida ham bir nechta xayrli tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, tuman O‘STM NTM jamoasi yaqinda o‘zining zamonaviy o‘quv-mashq avtodromiga ega bo‘ldi. Endilikda bo‘lajak haydovchilar barcha qulayliklarni o‘zida mujassam etgan zamonaviy avtodromda amaliy mashg‘ulotlarni bajarish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu esa, o‘z navbatida, birinchidan, xodimlarga belgilangan vazifalarni tez va sifatli bajarish imkoniyatini berayotgan bo‘lsa, ikkinchidan, avtomobil boshqarishni puxta egallagan, yo‘l harakati qoidalarini yaxshi o‘zlashtirgan malakali haydovchilar tayyorlash imkoniyatini ham yaratdi. Endilikda zamonaviy talablar asosida barpo etilgan avtodromdan nafaqat jarqo‘rg‘onliklar, balki qo‘shni tumanlarda faoliyat olib borayotgan “Vatanparvar” tashkiloti tinglovchilari ham foydalanishi mumkin.

Akbar ALLAMURODOV



Reklama huquqi asosida

Zamonaviy texnologiyalar – imkoniyatlar eshigi



Bugungi kunda "Avtovoditel" xususiy korxonasida malakali haydovchilar tayyorlash uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Poytaxtimizda faoliyat ko'rsatayotgan ushbu muassasa "A", "B", "BC", "BE", "CE" hamda "D" toifali haydovchilar tayyorlashga ixtisoslashtirilgan.

Shuningdek, o'ttiz soatlik malaka oshirish o'quv dasturi bo'yicha haydovchilar malakasini oshirish va amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-ustalar *(instruktorlar)* tayyorlash kurslari ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Texnik va texnologik jihatdan mukammal darajada ta'minlangan ushbu dargoh mutaxassislari o'zlarining yangicha uslubda, yo'l harakati qoidalari va boshqarish amaliyotini yaxshi biladigan haydovchilar tayyorlashni maqsad qilib qo'ygan. Bu borada joriy qilingan ta'lim va axborot texnologiyalarining eng so'nggi yutuqlariga asoslangan dasturlarning ahamiyati katta bo'lmoqda.


Mana shu kunlarda mamlakatimiz Mustaqilligining 35 yillik bayramini munosib ravishda nishonlayapmiz. Bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi asta-sekin o'z natijalarini bermoqda. Endilikda har sohada o'zgarishlar mevasi ko'rinayotgani, tabiiy har birimizni quvontiradi. Yanada unumli mehnat qilishga, izlanishga chorlaydi.

"AVTOVODITEL" xususiy korxonasini ham tom ma'noda islohotlar mevasi deyishimiz mumkin. Zotan, mamlakatimizda Prezidentimiz tashabbusi bilan erkin mehnat, tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Mazkur korxonani tashkil etish natijasida yuz nafardan ziyod hamyurtimiz doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlandi. Muhimi, haydovchilik sir-asrorlarini o'rganmoqchi bo'lgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi.

Avtomaktablarimizda tinglovchilarga zarur qulayliklar yaratilib, zamonaviy talablarni o'zida mujassam etgan sinfxonalar, avtodrom hamda turli rusumdagi o'quv avtomobillari taqdim etilgan.

Haydovchilik kasbini egallashni xohlovchilarning uzog'ini yaqin qilish maqsadida poytaxtimizning va Toshkent viloyatining bir qancha tumanlarida hamda Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahrida filiallari faoliyati yo'lga qo'yilgan.



Davronbek NOROV,
"Avtovoditel" xususiy korxonasi direktori

"Avtovoditel" xususiy korxonasiga qarashli avtomobil maktablari barcha xohlovchilarni avtomobil boshqarishning "A", "B", "BC", "C", "CE" hamda "D" toifalariga o'qishga taklif etadi. Mashg'ulotlar malakali mutaxassislar tomonidan olib borilishi kafolatlanadi. Shuningdek, bu yerda haydovchilar malakasini oshirish, amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-ustalar tayyorlash kurslari ham faoliyat ko'rsatmoqda.





Xizmatlar litsenziyalangan.

Toshkent shahri, Yashnobod tumani "Vatandosh" MFY Cho'lpon ko'chasi, 1-uy.

99 919-11-88; 88 333-11-88

Hurmatli tinglovchilar! Sizlarga qulaylik yaratish maqsadida bir qancha tumanlarda ham avtomaktab filiallari tashkil etilgan.

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

Ma’naviy targ‘ibot

“MEN TANIGAN O‘ZBEKISTON” – O‘zbekiston xalqiga ehtirom

“Azimut Grand” mehmonxonasining muhtasham Amir Temur zalida ijtimoiy-siyosiy fanlar doktori, professor, asli turkiyalik Kamel Yavuz Atamanning “Men tanigan O‘zbekiston” kitobining taqdimotidan keyingi o‘ylarim.



Bir zamonlar venger sharqshunosi, turkologi, sayohatchi va siyosatchisi Herman Vamberi ro‘dapo kiyingan darvish qiyofasida savdo karvonlariga osilgancha Markaziy Osiyoning u tomonidan kirib, bu tomonidan chiqqan. U sayohat davomida aholining ijtimoiy va siyosiy munosabatlari, urf-odat va qadriyatlari, ayniqsa jug‘rofiyasini mufassal o‘rgandi, Markaziy Osiyo tarixiga oid yozma manbalar bilan qiziqdi. Gap shundaki, uning sayohat xotiralari bilan bog‘liq asari, hikoya va maqolalari Markaziy Osiyo xalqlarining bir qadar to‘siq ortida saqlangan hayot tarzi bilan butun dunyoni tanishtiribgina qolmay, strategik jug‘rofiy obyektlar xususida ham ma’lumotlar berdi. Ta’bir joiz bo‘lsa, bu ulkan xizmatga hurmat natijasi o‘laroq, sayohatchini Angliya qirolichasi Viktoriya muhtasham saroyida qabul qildi.

Oradan bir yarim asrdan oshiqroq vaqt o‘tdi. XXI asrning dolg‘ali davri boshlandi. Ijtimoiy-siyosiy fanlar doktori, professor, asli turkiyalik Kamel Yavuz Ataman esa mamlakatimiz tarixi, urf-odatlari, qadriyatlarini allaqanday darvish libosida pinhona emas, balki ochiqdillik bilan chuqurroq o‘rganishga, tahlil qilishga ahd qildi. Oshning xushbo‘y zirvagi isi anqiydigan o‘zbekona fayzayob mahallalari, tanbur nolalari yangrab turadigan guzarlar, bedanalar pitbildig‘i huzur bag‘ishlaydigan choyxonalarda zamondoshlarimiz bilan bir piyola issiq choy ustida qurilgan suhbatlar, karnay-surnay sadolarisiz o‘tmaydigan beshik, xatna, nikoh to‘ylari aziz mehmonning qalbini to‘lqinlantirdi.

O‘zbekistonda multiplikator va akselerator *(ko‘paytiruvchi va tezlashtiruvchi)* omillar iqtisodiyotni harakatga keltirayotganini do‘stona qalb bilan ko‘ra oldi. Bu mamlakat aholisi uchun yangidan yangi ufqlarni ochayotgani, jamiyatda dadillik kuzatilib, jadal taraqqiyot yo‘liga kirilayotgani olimning e’tirofiga sazovor bo‘ldi.

U “Globallashuvning ijtimoiy-madaniy tafakkur tuzilishi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Globallashuv va Movarounnahrdagi islom sivilizatsiyasi sohalaridagi tadqiqotlari esa hamon davom etmoqda. Qusam ibn Abbos, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Mavlono Jaloliddin Rumiy, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Xoja Ubaydulloh Ahror, Sulaymon Hakim ota, Yusuf Xos Hojib, Abdulhasan Nuriy singari buyuk namoyandalar, jadid harakati faoliyati haqida ma’ruzalari, maqolalari va tadqiqotlarining mavjudligi olimga kuch bag‘ishladi. Olimning ma’nan, ruhan xalqimiz bilan yakdilligi bu yo‘lda asos vazifasini bajardi.

Shunday odamlar borki, o‘zga mamlakat emas, o‘z mamlakati tarixini bilmaydi yoki bilishni istamaydi. Olim asarni yozishga kirishar ekan O‘zbekistonni chinakamiga tanish uchun ikkita asosiy mezonni belgiladi: tarixni chuqur anglash; zamonni to‘g‘ri ko‘ra bilish va idrok etish.

Ikki qismdan iborat asarning birinchi bo‘lagi “Ota makonim, hasratlarim va diydorlashuv” deb nomlanadi. Unda “Sayohatlarim”, “Shaharlar mamlakat ko‘zgusi”, “Olimlar, so‘fiylar makoni va asarlar mahzani”, “Islom sivilizatsiyasi va ma’rifat markazi” deb nomlangan badiiy esselar jamlangan.

“Sayohatlarim”... Yozmishi go‘zalmi yoki tarjimon qalbi shu qadar cho‘g‘limi? “Bir vaqtlar zulm va mustamlaka asoratiga mahkum etilgan, temir pardalar ortidagi eshiklari qulf bo‘lgan Turkiston diyorining – ota makonimizning o‘sha ayanchli ahvoli qalbimizni o‘rtar va bag‘rimizni qon qilardi. U yerdan arang yetib kelgan tarqoq va chala-chulpa xabarlarni bo‘lsa ham izlar, og‘izdan og‘izga o‘tib yurgan rivoyatlarning ortidan quvardik. Muqaddas ota makonimizga va u yerda yashayotgan qondoshlarimizga qachonlardir yetishish, oliy visol kunlarini intizorlik bilan kutardik. Eng otashin tuyg‘ularga yo‘g‘rilgan she’rlarni o‘qir, mahzun navolarni tinglar, xushxabar ilinjida ko‘zlarimizni to‘rt qilib, munavvar Turkiston ufqlaridan quyosh balqadigan tonglarni va tong yulduzlari chiqishini poylardik”. Bu dard va hasrat bundan o‘ttiz besh yil oldingi armonlarimiz, hasratidan chang chiqqan nidolarimizga naqadar uyg‘un. Bu faqat bizning emas turkiylarning alamli faryodlari emasmidi? Demak, bu bitiklarni qog‘ozga tushirgan muallif begona emas. Balki ulkan chinorning tomiridan tarqalgan qavmdoshimiz.

Asarning “Anado‘lu xalqi va Turkiston sevgisi”, “Saljuqiylar hamda Usmonlilar tuproqlarida Buxoriy, Samarqandiy, Balxiy va Xorazmiylar”, “Omon ayriliq, yomon ayriliq” kabi esselarni qaroqlarda ko‘zyosh aylanmay o‘qish mushkul. Ularda o‘tmishdagi zanjirband Turkiston xalqlarining oh-u nolasi quloqlaringizga chalingandek bo‘ladi. “Bizning qadriyatlar olamimizda Makkayi mukarrama, Madinayi munavvara va Quddus-u sharif qanchalar muqaddas sanalsa, ularning uzviy davomi o‘laroq, Samarqand va Buxoro shonli zanjirning eng muhim xalqalari sifatida tilga olinardi. ...Biz Turkiston zaminida ro‘y bergan tarixiy voqealarni go‘daklik chog‘imizdan boshlab eshitib katta bo‘ldik. Xoja Ahmad Yassaviy nafasi, Abdulkarim Sotuq Bug‘raxon jasorati, Ergeneko‘ndan chiqqan afsonaviy Ko‘k bo‘rilar va Alp Er To‘nga dostonlari qulog‘imizga muttasil quyib kelindi”.

Asardan joy olgan “Diydorlashuv quvonchi va istiqlol xushxabari”, “Diydor”, “Zulm mangu bo‘lolmas” singari esselarni o‘qigan kitobxonda ajdodlarning hurlik nasimlari bilan bog‘liq asriy orzularining mustajobi aks sadolari jaranglayotgandek tasavvur uyg‘onadi.

“Yangi O‘zbekiston qiyofasi” deb nom berilgan ikkinchi qismdan joy olgan esselar “Movarounnahr: tuproq – baraka, suv – rahmat” mavzusi bilan boshlanadi. “Bu zaminda og‘ir zulmlar, bosqinlar, istilolar, tazyiqlar, cheksiz azob-uqubatlar va yo‘qchiliklar boshdan kechirildi, ammo baribir daryolar o‘zining barakali o‘zanlariga, daryo suvlari esa o‘z o‘rniga qaytdi. Urug‘lar yorilib, nihollar ko‘kara boshladi, ulkan chinorlar qaytadan bo‘y cho‘zmoqda. Tabiat qonuni shuki, daryolarni aslo ortga oqizib bo‘lmaydi. Xuddi shuningdek, millatlarning ham ertami-kechmi o‘z asliga, o‘z ildizlariga qaytishi muqarrar bo‘lib, bu ilmiy, tarixiy va ijtimoiy haqiqatdir. Yangi O‘zbekiston Movarounnahr, Xuroson va Xorazm zaminida yuksalgan o‘sha buyuk madaniyatning munosib davomchisi bo‘lishga qat’iy ahd qilgan, bu borada qaror qabul qilib bo‘lgan. Buning uchun bugun tinimsiz mehnat qilmoqda, o‘z maqsadlari sari dadil odimlab, bir maromda yuksalmoqda”.

O‘zbekistonda transport va kommunikatsiya imkoniyatlarining kengayishi, internetning ommalashishi, turizmning rivojlanishi hamda yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, jamiyatning moddiy jihatdan yuksalayotgani olimning diqqat markazida bo‘lgan. Xususan, sho‘rolar tuzumidan qolgan turg‘un va og‘ir tuzilmadan mamlakatimiz butunlay forig‘ bo‘lgani, G‘arb davlatlari bilan bir qatorda geografik yaqinlik omili tufayli Xitoydagi texnologik va iqtisodiy o‘zgarishlarning ham bizga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgani, davlat sarmoya tuzilmalari va boshqa sohalarda milliy manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yayotgani, investitsiyalar borasida dinamik qarorlar qabul qilish va ularni ijro etish mexanizmini shakllantira olgani muallifning hayratini oshirgani asarda yaqqol namoyon bo‘lgan.

Inchunun, “Kuchli strategiya” deb nomlangan esseni o‘qir ekanman, quyidagi satrlar qaroqlarimga quvonch yoshlarini joyladi. “Ushbu ajoyib manzaraning ortida tarixiy subyektlarni, voqea-hodisalar va geosiyosiy voqelikni juda to‘g‘ri tahlil qila oladigan, o‘zining qat’iy strategik rejasiga ega va poydevori baquvvat davlat siyosati turgani ko‘rinadi. Davlat rahbari muhtaram Shavkat Mirziyoyev kuchli bir strateg sifatida o‘z xalqini, millatini, ilm-fan ahli va biznes olamini, mahalla va shaharlarni eng mayda detallarigacha juda yaxshi tanishi ayon bo‘lmoqda”, deb e’tirof etadi muallif.

Olim O‘zbekiston sarhadlari bo‘ylab kezar ekan, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy majmuasi kabi muazzam koshonalarning har bir jihati, har bir detali juda chuqur o‘ylangani, hisob-kitob qilingani va qayta tiklanayotgan tarixiy obidalar Yangi O‘zbekistonimizning tafakkur dunyosini hamda kelajak “yo‘l xaritasi”ni aniq-tiniq ko‘rsatib turganini qayd etadi. Shu bilan birga, o‘tmishda og‘ir sinovlar, qiyinchiliklarni boshdan kechirgan va turli tazyiqlarga duchor bo‘lgan davlatning o‘z jug‘rofiy, tarixiy, moddiy va ma’naviy boyligini asrab qolish, ham global o‘zgarishlar qarshisida qudratli refleks shakllantirib, yuksak natija ko‘rsata olish buyuk muvaffaqiyat va tarixiy g‘alaba hisoblanib, bunga erishmoq uchun O‘zbekistonda aqlli, mantiqli, rejali va dasturli siyosiy iroda mavjudligini alohida ta’kidlaydi. Bu olimning yurtimizga bo‘lgan g‘oyat yuksak ehtiromidan dalolat beradi.

Kamel Yavuz Atamanning “Men tanigan O‘zbekiston” asari Yangi O‘zbekiston g‘oyasi va nazariyasining ma’naviy targ‘iboti sifatida ham qadrlidir.

Guljahon MARDONOVA,
filologiya fanlari doktori

MUASSIS
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Ulug‘bek Fattaxov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo‘lim: 55 511-25-72

Navbatchi: leytenant Mansurbek Jabborov
Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo‘ziyeva
Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-6183
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 32 075 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH” YTT mas’ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH” YTT hamkorlikda “O‘zbekiston” NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot

BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz
t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz
mudofaavazirligi
mudofaavazirligi
www.youtube.com/c/UzArmiya